



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil

4-iyul

payshanba

№ 27 (4669)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

YURTNING MARD O'G'LONLARI



Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga muvofiq, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda alohida faollik ko'rsatib, o'zining bilim va qobiliyati, intiluvchanligi, tashabbuskorligi va samarali mehnati bilan yurtimiz taraqqiyotini yuksaltirish, jonajon Vatanimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va yuqori salohiyatga

ega, xalq manfaati va yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan bir guruh fidoyi va mard o'g'lonlarimiz «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Ular orasida Jizzax viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi katta mutaxassisi, **kichik serjant Shahboz Mo'minov** hamda Navoiy viloyati IIB JXX JTSB patrul-post xizmati batalyoni **safdor xodimi, safdor Shohrux O'ktamov** ham bor.

3



МИНГ ОЙНИНГ
КУЁШСИЗ МИНГ КУНИ

8



TAJIRIBA VA YOSHLIK
UYG'UNLIGI

9



Беход Мухаммадқаримов:
ТОМОШАБИН ДИДИ БИЛАН
ЎЙНАШИБ БЎЛМАЙДИ

17

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

YOSHLAR BILAN MULOQOT

So‘nggi yillarda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulkan maqsadga erishish yo‘lida yoshlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohada o‘z iqtidori va salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlar yaratib berish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zero, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol yoshlar ertamiz egalaridir.

Poytaxtimizdagi «Yoshlar ijod saroyi»da o‘tkazilgan Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po‘lat Bobojonovning vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan uchrashuvida ham bu borada atroflicha so‘z yuritildi. Har bir yigit-qiz davlatimiz rahbarining kelajak bunyodkorlariga bo‘lgan katta ishonchini oqlash uchun, qaysi sohada faoliyat yuritmasin, astoydil mehnat qilishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi, zimmasidagi vazifalarni intizom va kuchli iroda bilan bajarishi kerakligi qayd etildi.

Ta‘kidlash joizki, 2021-yildan boshlab, ichki ishlar organlarida iyun oyi «Yoshlar oyligi» deb e‘lon qilinib, eng faol yosh xodimlar ishtirokida yoshlar forumi o‘tkazilishi an‘anaga aylandi. Jumladan, joriy yilning 19–21-iyun kunlari ichki ishlar organlari yosh xodimlari va harbiy xizmatchilarining IV Respublika yoshlar forumi Qashqadaryo viloyatida o‘tkazildi. Shu o‘rinda yosh xodimlar orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va iste‘dodlarni kashf etishga qaratilgan «Eng faol yoshlar yetakchisi», «To‘maris izdoshlari», «Zakovat», «Yosh kitobxon», «Quvnoqlar va

zukkolar», «Ajdodlar izidan», «Harbiy estafeta», «Jangovar marsh» kabi turli tanlov va musobaqalar o‘tkazib kelinayotganini ham ta‘kidlash o‘rinlidir.

Bugungi kunda 485 nafar yosh xodim professional sport bilan doimiy ravishda shug‘ullanadi. Ularning 62 nafari xalqaro toifadagi, 272 nafari milliy toifadagi sport ustasi darajasiga erishganligi barchamizni quvontiradi, albatta. Xususan, shu yil 8-martda Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan



bellashuvda professional boksning WBA yo‘nalishida Toshkent viloyati IIBB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi xodimi, mayor Isroil Madrimov jahon chempioniga aylandi. Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan boks bo‘yicha jahon chempionati va Osiyo o‘yinlarida Toshkent shahar IIBB TVBSO xodimi, leytenant Abdumalik Xaloqov 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Qozon shahrida o‘tkazilgan jangovar sambo bo‘yicha xalqaro musobaqada Farg‘ona viloyati IIB TVBSO xodimi, serjant Lutfilla Saydamatov oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Shijoatli yoshlarni qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga yarasha rag‘batlantirish, ular orasidan bilimli, halol va jonkuyar xodimlarni rahbarlik lavozimlariga tayinlash juda muhim vazifadir. Hozirgi kunda hududiy ichki ishlar organlarida 206 nafar yosh xodim (4 nafari ayol) rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bormoqda. Masalan: Sevara Xudoyberganova Xorazm viloyati, Muhabbat Xidiraliyeva Sirdaryo viloyati IIB HPB boshlig‘ining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari bo‘lsa,

Salamat Utemuratov Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV JXX bo‘lim boshlig‘i, Doston Ibragimov Surxondaryo viloyati IIB Kiberxavfsizlik bo‘limi boshlig‘i hisoblanadi.

Ochiq muloqot shaklida tashkil etilgan tadbirda general-leytenant Po‘lat Bobojonov ishtirokchilarga sohaning kecha va buguni, faoliyati davomida to‘plagan tajribalari va soha kishisi zamon bilan hamnafas yashashi va xizmat olib borishi zarurligi xususida alohida to‘xtalib o‘tdi. Yoshlarning fikr-mulohazalarini tinglab, takliflari bilan qiziqdi. E‘tiborli jihati yoshlar tilga olgan masalalar vazirlikning tegishli rahbarlariga o‘rganish va zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun yo‘naltirildi.

O‘z navbatida, bilim va iqtidori, tashabbuskorligi, halol va samarali mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan yosh xodimlarning bir guruhi 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan turli idoraviy mukofotlar bilan rag‘batlantirildi. Shuningdek, ularning 7 nafariga rag‘batlantirish tariqasida muddatidan oldin maxsus unvon, 44 nafariga imtiyozli uy va ssuda mablag‘lari ajratish bo‘yicha vaucherlar taqdim etildi.

SO‘Z – ISHTIROKCHILARGA

– Otam Abdurahmon Toshpo‘latov uzoq yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilib, katta serjant unvonida pensiyaga chiqqan, – deydi **IIV Malaka oshirish instituti Axborot-resurs markazi katta kutubxonachisi, safdor Abbosjon Tillayev.** – Ularga havas qilib, shu sohani tanlaganman. Zimmamga yuklatilgan vazifalarni to‘liq va sifatli bajarishga harakat qilaman.

Oilaliman, ikki nafar farzandimiz bilan ijarada yashardik. Bugun vazirlik Ijtimoiy himoya qilish masalalari bo‘yicha markaziy komissiyasining tegishli qaroriga muvofiq, imtiyozli asoslarda uy-joy uchun vaucherni qabul qilib oldim. Endi o‘z uyimiz bo‘ladi. Yoshlar bayrami xonadonimizga haqiqiy ma‘noda quvonch, shodlik bilan kirib keldi. Buning uchun vazirlik rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman.

– Mening eng sevimli mashg‘ulotim kitob mutolaasi, – deydi **Toshkent viloyati Parkent tumani 1-sonli IIB jinoyat qidiruv guruhi tezkor vakili, kapitan Hamidullo O‘sarov.** – Chunki kitob insonning tafakkurini charxlab, uning dunyoqarashini kengaytiradi. Oddiy misol, o‘qigan kitoblardan chiqqan xulosalarim xizmat jarayonida ko‘p asqatadi. Bugungi kitoblar jamlanmasi uyimdagi kutubxonamni ham, sohaga oid bilimlarimni ham boyitadi.

– IIV Akademiyasida ta‘lim olish jarayonida ikki marotaba Vazir stipendiyasiga sazovor bo‘ldim, – deydi **IIV Akademiyasi muzeyi boshlig‘i, katta leytenant Malika O‘rmonova.** – Sportning taekvondo ITF yo‘nalishida xalqaro toifadagi sport ustasiman. Ikkita chet tilida xalqaro serti-

fikatni qo‘lga kiritdim. Eng quvonarlisi, 2023-yili IIV Akademiyasini katta leytenant unvoni bilan tamomladim. Hozirda ilmiy ish bilan shug‘ullanib kelmoqdaman. Bu erishgan yutuqlarim, yurtimizda biz – yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar kengligidan dalolatdir.

Bugungi uchrashuvda vazirimizdan ichki ishlar organlarida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qilish yo‘nalishida yosh xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar haqidagi savolimga atroflicha javob oldim. Va kutilmaganda navbatdagi xalqaro hamkorlik doirasidagi tadbirlarda ishtirok etish, xorij tajribasini o‘z joyida o‘rganish imkoniyatini qo‘lga kiritdim. Bundan juda xursandman.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.



YURTNING MARD O'G'LONLARI

Kuchli iroda, jasorat va intilish bilan hayotda juda ko'p yutuqlarga erishish mumkinligini o'z hayoti misolida isbotlaganlardan biri Shahboz Mo'minovdir. U bolalikdan qo'l jangi bilan muntazam shug'ullanib, qator xalqaro musobaqalarda shohsupaga ko'tarila oldi.

Xususan, 2018-yilda Rossiya Federatsiyasining Ufa shahrida bo'lib o'tgan Yevroosiyo chempionatida ikkinchi o'rinni egalladi. O'sha yili Tulada, 2019-yilda qozog'istonning Almati shahrida, 2021-yilda Toshkentda, 2022-yili Buxoroda o'tkazilgan jahon chempionatlarida g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2023-yilda esa Belarusda kechgan jahon kubogi bahslarida 3-o'rin sohibi bo'ldi.

Sevimli mashg'uloti lavhamiz qahramonining kelajagini belgiladi, desak, xato bo'lmaydi. Chunonchi, qo'l jangi bilan bir zalda shug'ullandigan ichki ishlar organlari xodimlariga havas qilib, qonun himoyachisi bo'lishga ahd qildi. Shu maqsadda 2019–2022-yillarda IIV Jizzax akademik litseyida ta'lim oldi.

Ushbu o'quv muassasasini tamomlagach, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, ichki ishlar organlari safiga qabul qilindi. 2023-yilning aprel oyidan buyon Jizzax viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi



safarbar otryadida katta mutaxassis lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiyki, sevimli sport turi bilan shug'ullanish Shahboz uchun xizmat taqozosiga aylandi.

Mamlakat va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarida ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritishda davom etmoqda. Chunonchi, joriy yil iyun oyi boshida Surxondaryoda

sportning qo'l jangi bo'yicha respublika miqyosida tashkil etilgan saralash bellashuvlarida 2-o'rinni egalladi. Bu g'alaba unga sentabr oyida Germaniyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etish huquqini berdi.

Yaqinda Shahboz Mo'minovning hayotida yana bir muhim voqea ro'y berdi. Sport sohasidagi yutuqlari

hamda xizmatdagi natijalari inobatga olinib, davlatimiz rahbarining 2024-yil 27-iyundagi qaroriga binoan «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu Shahbozni yanada yuqori marralarga ruhlantirishi aniq.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, avvalambor, insonning o'ziga bog'liq. Safdor Shohruh O'ktamov armrestling va bodibilding bilan avvaliga mustaqil, so'ngra ustozlari ko'magida shug'ullanib, mohir sportchi darajasiga erishdi. Bunda tanqidni to'g'ri qabul qilishi, sabot va irodasi muvaffaqiyatlar kaliti bo'ldi.

Shohruh O'ktamov 2018-yili Turkiyaning Antalya shahrida sportning armrestling turi bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida faxrli 3-o'rinni egalladi. 2019-yilda esa Qozog'istonning Almati shahrida mazkur sport turi bo'yicha tashkil etilgan Osiyo kubogi bahslarida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, Shohruh hozirga qadar 100 dan ortiq respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda g'oliblar hamda sovrindorlar safidan joy olgan. 2019-yilda «O'zbekiston sport ustasi», 2020-yilda esa



«Xalqaro toifadagi sport ustasi» sport unvonlari bilan taqdirlangan.

Jahon arenaslarida yurtimiz bayrog'ini ko'p bora baland ko'targan Shohruh O'ktamov osoyishtalik posboni. U 2022-yilning avgust oyidan Navoiy viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni tumanlararo patrul-post xizmati guruhi safdor xodimi lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Tabiatan vazmin, kamtar, qat'iyatli, har qanday murakkab vaziyatda ham mustaqil qaror qabul qila oladigan bu yosh xodim tez orada safdoshlariga o'rnak bo'ldi. Kasbdoshlari uni tashkilotchi, bilimli va intiluvchan xodim sifatida ham hurmat qilishadi. Xizmatdagi yutuqlari va yuqori ko'rsatkichlari uchun rahbariyat tomonidan ko'p bora rag'batlantirilgan. Yaqinda esa safdor Shohruh O'ktamov mamlakatimiz Prezidentining qaroriga muvofiq «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

■ Самаркандская область

УСПЕХ ОПРЕДЕЛЯЮТ МОЛОДЫЕ

В УВД Самаркандской области состоялась встреча с молодыми специалистами, приступающими к профессиональной деятельности.



На мероприятии, прошедшем в духе открытого диалога, выступил начальник УВД области полковник Рахмат Маматов, который подчеркнул, что за плечами присутствующих несколько лет плодотворной учебы, в том числе в образовательных учреждениях системы МВД. Настало время применить полученные знания в практической службе в ОВД.

В ходе мероприятия молодые люди обратились со своими идеями. Предложено создать Совет молодежи, организовать конкурс книголюбов, клуб, где будут проводиться творческие встречи.

Председатель Совета ветеранов УВД Сами Адылов рассказал о роли ветеранских организаций

в военно-патриотическом воспитании молодежи. Он отметил, что ветераны всегда готовы прийти на помощь, поделиться опытом и профессионализмом.

На встрече также были затронуты вопросы оценки служебной деятельности молодых сотрудников, организации специальных тренингов по обучению их новым методам работы. Отмечена необходимость популяризации опыта работы передовых сотрудников.



Важная задача – поощрять молодых людей за их достижения, назначать знающих, честных и преданных сотрудников на руководящие должности. Сегодня несколько десятков талантливых и активных молодых людей занимают должности начальников районных отделов внутренних дел и их заместителей, включены в кадровый резерв.

Стоит упомянуть, что в территориальных и областных подразделениях УВД служат свыше 400 молодых сотрудников, более 40 из них – призеры международных олимпиад и турниров.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

■ Андижанская область

– Основной рабочий инструмент врача УЗИ – специальный аппарат и компьютер, – рассказывает Мухайё Фархадовна. – Ультразвуковое исследование позволяет с высокой точностью выявлять проблемы здоровья пациентов.

Во многом качество диагностики зависит от технических возможностей оборудования, на котором проводится обследование. Недавно в поликлинике установили ультразвуковой сканер «Mindray DC-40», сочетающий в себе отличное качество изображения, высокую скорость работы, удобное управление с помощью сенсорного экрана, широкий спектр режимов и предварительных установок.

– Каждый день на приеме от 30 до 40 пациен-

ЗАБОТА О ЛЮДЯХ

После окончания Андижанского государственного медицинского института и прохождения интернатуры Мухайё Дадахужаева некоторое время работала врачом в гражданских медучреждениях. В 1997 году она окончила курсы по УЗИ Ташкентского института усовершенствования врачей. С 1998 года работает врачом ультразвуковой диагностики (УЗИ) в поликлинике медицинского отдела УВД Андижанской области.

тов, – продолжила М. Дадахужаева. – Иногда приходится выезжать на дом к пациентам, которые не могут самостоятельно передвигаться. В основном это ветераны органов внутренних дел. Еще в детстве решила – вырасту, стану врачом. По моим стопам пошел и сын Машхурбек. Он окончил Андижанский

государственный медицинский институт, работает врачом в Ташкенте.

Медики поликлиники, где трудится Мухайё Фархадовна, регулярно выезжают в подразделения УВД. Проводят медицинский осмотр сотрудников, выявляют заболевания на ранних стадиях. Многое изменилось в медслужбе за прошедшие десятиле-



тия. Неизменным остается только внимательное и чуткое отношение к пациентам, милосердие, доброта, которыми обладают сотрудники поликлиники медицинского отдела УВД Андижанской области.

– Врач отвечает за самое главное – за жизнь человека. И работу свою выполнять он должен с душой, – отметила в заключение беседы Мухайё Дадахужаева.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.



IIV TA'LIM MUASSASALARIDA

OLDINDA OYDIN ORZULAR

IIV Namangan akademik litseyida qabul jarayonlari allaqachon boshlangan. O'qishga 9-sinfni tamomlaganligi to'g'risidagi shahodat-nomaga ega bo'lgan, sog'lig'i jihatidan o'qishga yaroqli deb topilgan, dastlabki, maxsus-professional tanlov va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar qabul qilinadi. 2024–2025-o'quv yili uchun 2086 nafar nomzod murojaat qilgan. Individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish natijalari yakuni bo'yicha o'tkazilgan tanlovlardan 1131 nafar nomzod maxsus-professional tanlov sinovlariga, 824 nafari esa test sinovlarini topshirishga qo'yildi.



Maxsus-professional tanlov 3 bosqichda bo'lib o'tdi va har bir bosqich 5 ballik tizimda baholandi. Shuningdek, nomzodning savodxonlik, jismoniy tayyorgarlik darajasi ham aniqlandi. Yakka tartibdagi yakuniy suhbat tarix, ona tili va adabiyot, huquqshunoslik yoki tarbiya fanlaridan

bo'lib o'tdi. Endilikda nomzodlar oldida eng so'nggi bosqich — yakuniy test sinovlari turibdi. Test sinovlari belgilangan tartib asosida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha dav-

lat komissiyasi belgilagan muddatlarda bo'lib o'tadi. Litseyga 200 nafar o'quvchi qabul qilinadi. Shundan 10 foizini qizlar tashkil etadi. O'tgan o'quv yilida 177 nafar o'quvchi akademik litseyi tamomlab, ularning 153 nafari OTMga o'qishga kirdi, shulardan 32 nafari IIV Akademiyasiga, 1 na-



fardan DXX Akademiyasiga va Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga, 6 nafari Jamoat xavfsizligi universitetiga qabul qilindi.

Toshkent davlat yuridik universitetiga 1 nafar, fuqarolik oliy ta'lim muassasalariga 36 nafar, xususiy OTMga 65 nafar, chet davlatlarga o'qishga kirganlar 11 nafarni tashkil etdi. Shuningdek, 4 nafar bitiruvchi iqtisodiy va xususiy sektorlarga ishga kirgan. 4 nafar o'quvchi harbiy xizmatni o'tamoqda.

Bandligi ta'minlanmagan 20 nafar bitiruvchining ota-onalari bilan suhbatlar o'tkazilib, litseydagi o'quv tayyorlov markaziga jalb etildi.

Joriy o'quv yilini tamomlagan o'quvchilarimiz ayni paytda oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda.

Ilhomjon BURXONOV,
IIV Namangan akademik litseyi direktori,
podpolkovnik.

AYOL VA JAMIYAT

AJRASHISH — YECHIM EMAS

Poytaxtimizning Uchtepa tumani «Qo'rg'ontepa» mahallasida ijara asosida yashovchi Sh.Sh. turmush o'rtog'i R.Sh. bilan yuzaga kelgan oilaviy kelishmovchilik yuzasidan «102» raqamiga qo'ng'iroq qilib, yordam so'raydi.

Yosh oilada yuzaga kelgan muammolarni o'rganish va huquqiy yordam ko'rsatish maqsadida ular tuman IIB 2-sonli IIBga taklif qilinadi. Tuman XQMB katta inspektorlari, podpolkovnik Nilufar Sobirova va kapitan Sandugash Nursultonova hamda «Qo'rg'ontepa» mahallasi xotin-qizlar faoli Sh. Karimova bilan hamkorlikda profilaktik suhbat o'tkaziladi. Jarayonda ma'lum bo'ladiki, 2022-yilda turmush qurgan yosh oila qaynona-qaynotasi bilan kelisha olmay, alohida yashash maqsadida ijara uyga ko'chib o'tadi. Ayni paytda oilada farzand yo'qligi hamda moddiy tomondan yetishmovchilik yuzaga kelgani sababli, Sh.Sh.ga turmush o'rtog'i tomonidan turli ruhiy tazyiq bo'layotgani aniqlanadi.

Mazkur holatni inobatga olib, fuqaro Sh.Sh.ga huquqiy maslahat berilib, himoya orderi rasmiylashtirildi. Eng asosiysi, er-xotin yarashtirildi.

– Oilada kelishmovchilik paydo bo'lsa, birinchi navbatda, muammo-

ning kelib chiqish sababi o'rganiladi. Ayol bilan dildan suhbat quriladi, – deydi podpolkovnik Nilufar Sobirova. – Ko'pincha bizga murojaat etayotgan ayollar ajrashishni so'nggi chora, deb biladi. Aslida ba'zan kelishmovchilikka juda oddiy holatlar ham sabab bo'ladi: o'rinsiz rashk, qarindoshlarning be-mavrid aralashuvi, me'yorida oshgan orzu-havaslar... Zero, ajrashish – yechim emas. Oila mustahkamligi uchun barchamiz mas'ulmiz.

Podpolkovnik Nilufar Sobirova hamda kapitan Sandugash Nursultonova 16 ta mahalla aholisi bilan ishlab keladi. Notinch oilalar bilan tez-tez profilaktik suhbatlar o'tkazib, oila mustahkamligini asrash hamda farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

– Afsuski, notinch oilalarda voyaga yetayotgan bolalar jur'atsiz, qo'rqqoq va odamovi bo'lib qolishadi. Ba'zilari esa urushqoq, sirkasi suv ko'tarmaydigan bo'lishadi, – deydi kapitan Sandugash Nursultonova. – Oiladagi



notinchlik holati bolalar ruhiyatida yomon aks etadi. Sinfdoshlari, hatto ustozlari bilan kelisholmaydi. Bora-bora tajovuzkor bo'lib qolishi ham mumkin. Ota-onasini yomon ko'rib qolib, uyidan chiqib ketishlar, jinoyat olamiga daxldor bo'lib qolishlarni ham shu sabab bilan bog'lash mumkin. Biz ajrim yoqasidagi ota-onalarga bu kabi holatlarni tushuntirib, ularni yomon taqdirlardan asrashga harakat qilamiz.

Ha, odamlar mushkulining oson bo'lishi va ajrim yoqasidagi oilalarning yarashuviga sababchi bo'lgan onida

o'zini dunyoning eng baxtli kishisi, deb hisoblaydigan podpolkovnik Nilufar Sobirova va kapitan Sandugash Nursultonova kabi fidoyi xodimlar bor ekan, ular kuchni xalqning duolaridan oladi. Bu bilan yanada ko'proq ishlaydi, yangidan-yangi ezgu maqsadlarni ko'zlayveradi. El-ulus ulardek odamlar tashvishi yo'lida jonhalak, jonnisor ayollarga hamisha muhtojdir.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Герои среди нас

БОРЕЦ ИЗ РОМИТАНА

Занятие спортом закаляет человека, формирует целеустремленность, дисциплинирует, нацеливает на успех. Старший специалист МООН УВД Бухарской области рядовой Дилшод Намозов с благодарностью вспоминает тот день, когда впервые переступил порог спортивной школы.

Родился Дилшод в 1997 году в Ромитанском районе. Еще мальчишкой, увязавшись за братом Шерзодом, как-то раз побывал в местной спортивной школе № 42, где старший Намозов занимался в секции кураша (ныне он чемпион паралимпийских игр). Мальчик с интересом наблюдал за тренировкой, за тем, как группа выполняет задания наставника. Иногда становился в ряд и повторял упражнения. Прошли годы, прежде чем ученика пятого класса записали в секцию. Тренировал Дилшоода Шавкат Жумаев. Под его началом упорно занимался в течение трех лет. Не считая товарищеских встреч и школьных соревнований, тренер не допускал воспитанника к турнирам, придерживаясь собственной стратегии подготовки борцов.

В 2011 году Ш. Жумаев разрешил восьмикласснику выйти на ковер в серьезном поединке. На первенстве области Дилшод за-

нял первое место. А на чемпионате Узбекистана был вторым, завоевав серебряную медаль.

Окончив школу, Д. Намозов поступил в автодорожный колледж. Параллельно посещал спортивную школу по олимпийским видам единоборств в Бухаре. Под руководством мастера спорта Улугбека Рахмонова постигал самбо. И в 2015 году на чемпионате Узбекистана по самбо он занял третье место в своей весовой категории.

В 2016 году парень поступил на факультет физической культуры Бухарского государственного университета. В 2017 году Д. Намозов завоевал золотую медаль на чемпионате Узбекистана, прошедшем в Бухаре. Через год на кубке мира в Париже и в Астане завоевал две бронзовые медали.

Окончив университет, Дилшод два года выступал на разных соревнованиях, входя в число призеров. В 2021 году был при-

нят на службу в МООН Главного управления внутренних дел города Ташкента. Позже его перевели в МООН УВД Бухарской области. Его наставниками по службе являются майор Алишер Назаров и капитан Санжар Иноятов.

Рядовой Дилшод Намозов в 2022 году на чемпионате Узбекистана по комбат джиу-джитсу занял первое место. Был третьим на чемпионате Азии в Бухаре. Это же достижение повторил год спустя на чемпионате Азии, состоявшемся в Алматы. На чемпионате континента, организованном в Бухаре, завоевал серебряную медаль. Сейчас готовится к чемпионату мира, который пройдет в Польше. Мы верим, что Дилшод и на этот раз выступит достойно, высоко поднимет флаг Узбекистана.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



Джизакская область

ЗАКРЕПЛЯЮТ ЗНАНИЯ НА ПРАКТИКЕ



Курсанты Академии МВД в эти дни проходят практику в органах внутренних дел.

Прикомандированы они и в Джизакскую область. Первокурсники, прибывшие 24 июня в отделы и службы областного УВД, пробудут в подразделениях до 21 июля. Ребята курсом старше закрепят теоретические знания с 24 июня по 28 июля.

Знакомство с будущей профессией началось с собрания с участием ветеранов сферы. На ней курсантов определили

в соответствующие службы согласно направлениям обучения, закрепили наставников. Даны рекомендации по соблюдению служебной дисциплины. Родителям курсантов, добившихся высоких результатов в учебе, вручили благодарственные письма от руководства Академии.

Структуры УВД создают необходимые условия для курсантов, наставники знакомят

их с тонкостями профессии. Преподаватели Академии и ответственные сотрудники УВД ведут контроль за тем, как проходит практика, по окончании которой предстоят экзамены. Предусмотрено также проведение ряда духовно-просветительских мероприятий с участием курсантов.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.



BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!



VIJDONINI NAFSGA ALISHMADI

...Quyichirchiq tumanidagi «Credit innavator» mas'uliyati cheklangan jamiyatining Yangiyo'l shahridagi filiali fuqarolarga kelishilgan muddatlar asosida kredit evaziga maishiy texnikalar sotishni yo'lga qo'yadi. Fuqarolar bilan tuzilgan shartnomalar MCHJ mutasaddi xodimlari Alisher Shukurov, Sobir Eshqulov va Xurshid Ergashev (ishtirokchilarning ism-shariflari o'zgartirildi) tomonidan o'zlariga xizmat ko'rsatuvchi bankka olib boriladi. Bank xodimi Shuhrat Komilov esa ularga shartnomalarda ko'rsatilgan pul mablag'lari miqdoriga o'zgartirishlar kiritib, o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishni taklif qiladi. Qarabsizki, ko'z ochib-yumguncha, 5 million 15 millionga, 10 million 20 millionga aylanadi.

Beli og'rimasdan topilgan mo'maygina pullar jinoyat guruh a'zolarining nafsini ochib, noqonuniy ishlarini yana davom ettirishga «poydevor» bo'ldi. Ammo, «ko'za kunda emas, kunida sinadi» deganlaridek, ularning qilmishi fosh etilib, aybiga yarasha javob beradigan bo'lishdi. Ushbu qonunbuzarliklarni tergov qilish esa Yangiyo'l shahar IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi katta tergovchisi, kapitan Nozimjon Istamovga topshirildi.

– Tergov harakatlari davomida aybiga iqror bo'lishni istamagan Sh.Komilov yana bir jinoyatga qo'l urdi, – deydi kapitan Nozimjon Istamov. – Ya'ni, u mazkur qonunbuzarlik bo'yicha ayblanmasligi va jinoyat javobgarlikka tortilmasligi uchun menga 2000 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi.

Hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda Sh.Komilov tergovchining xizmat xonasida unga pora tariqasida taklif qilingan 2000 AQSH dollarini berayotgan vaqtida xolislar ishtirokida, ash-yoviy dalillar bilan ushlandi.

– Hayotdagi barcha muammolar pora evaziga hal qilinmaydi. Buni to'g'ri tushintirish, aholiga targ'ibot va tashviqotni kuchaytirish kerak, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ularga korrupsiya mamlakat rivojiga to'sqinlik qiluvchi eng katta dushman ekanini, huquqiy oqibatlarini tushuntiraman. Ayrimlari bundan to'g'ri xulosa chiqaradi, ayrimlari esa...

Har jabhada faol N. Istamov Yoshlar kuni munosabati bilan Ichki ishlar vaziri tomonidan esdalik qo'l soati bilan mukofotlandi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

PUL BO'LSA, CHANGALDA SHO'RVA...MI?

Ayrim kimsalar pul bilan, pora bilan har qanday ishni amalga oshirish mumkin, deb o'ylaydi. «Pul bo'lsa, changalda sho'rva» degan aqidaga ishonib adashganliklarini tushunganlarida esa, afsuski, kech bo'ladi.

Mirishkor tumanidagi «Bo'ston» mahallasida o'tkazilgan tezkor tadbirda ushbu mahallada yashovchi fuqaro A.B. o'z hovlisida ko'p miqdorda neft mahsulotlarini saqlab kelayotgani aniqlandi. Jumladan, hovlida turgan ikkita «Kobalt» avtoulovi, bitta «Isuzu» rusumli yuk avtomashinasida 20 litr hajmli 47 ta, 50 litr hajmli 7 ta hamda 1 tonna hajmli 5 ta yelim idishda neft mahsulotlari borligi ma'lum bo'ldi.

Tuman IIB TQX JQB katta tezkor vakili, mayor Rustam Norsaidov zimmasiga holatni hujjatlashtirish va tergovga qadar surishtiruv ishlarini olib borish vazifasi yuklandi.

Shu jarayonda A.B. mayorning oldiga kelib, aniqlangan holat yuzasidan chora ko'rmaslik va neft mahsulotlarini qaytarib berish evaziga pora taklif qiladi. Tezkor vakil unga qayta-qayta pora berish va olish jinoyat ekanini, buning uchun qonunda javobgarlik borligini eslatib, fuqaro o'z maqsadidan qaytmaydi.

IIV SHXBB Qashqadaryo viloyati bo'yicha boshqarmasi, IJQK departamentining Mirishkor tumani bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro B.A. mayor R.Norsaidovga 1000 AQSH dollari miqdoridagi pulni pora tariqasida bergan vaqtida ushlanib, tegishli tartibda hujjatlar rasmiylashtirildi.

Ayni paytda holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Hamza NIYOZOV,
kapitan.

Qashqadaryo viloyati.

XIZMATLARDA

HUSHYOR BO'LING: TEMIR YO'L!

Surxondaryo viloyati hududi bo'ylab o'tadigan temiryo'l izlarining uzunligi 408 kilometrni tashkil qiladi. E'tiborlisi, 950 ta xonadon, 24 ta mahalla, 16 ta maktab mazkur temiryo'llarga yaqin hududlarda joylashgan.

Fuqarolarning temiryo'l izlari yon-atrofida bemaqsad yurishi, temiryo'l atrofiga chiqindi tashlash, chorva mollarni boqish, yo'lovchi poyezdlarining vagon oynalariga tosh otish, aloqa liniya va asbob-uskunalariga shikast yetkazish, belgilanmagan joylardan kesib o'tish kabi xuquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida «Ogohlik – davr talabi» shiori ostida tadbirlar olib borilmoqda. Bunda, shubhasiz, viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari faollik ko'rsatishmoqda.

– Temiryo'llarga yaqin joylashgan ta'lim muassasalari, mahallalar, shuningdek turli korxonalar va tashkilotlarda temiryo'l xavfsizligiga rioya qilinishi to'g'risida muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borilyapti, – deydi «Jarqo'rg'on» bekatida XTB huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi katta inspektori, leytenant Bahrom Toshboyev. – Qolaversa, joriy yilda 168 nafar fuqaroga nisbatan ma'muriy bayonoma rasmiylashtirildi.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasiz bo'lmayapti. Joriy yilning dastlabki yarim yilligi mobaynida baxtsiz hodisalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80 foizga kamaygani buning tasdig'idir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



▶ ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

МИНГ ОЙНИНГ ҚУЁШСИЗ КУНИ

Ўтган асрнинг 41 йили. Ҳозиргидек жазирама ёз эмас, кузнинг ўртаси, 16 ноябрь куни эди. Йигитлар урушга кетган ва тўда-тўда бўлиб кетаётган, қорахатлар эшикларни чертиб кира бошлаган, кўчада почтачи кўринса, ота-оналар юраги дупурлаб ура бошлаган кезлар. Юраклар қувонч нималигини унутиб, уруш деган ярадан вужудлар безиллаб турган хомуш кунлар эди. Тошкент шаҳрида яшовчи Тўхтаназар Султонов оиласида ўғил туғилиб, оилага жила бўлсин, қувонч шабадасини улашди. Ахир, яна бир бўлажак – Ватан посбони дунёга келди.

Эл қатори уруш азобидан заҳмат чекиб, қиш тараддудини кўраётган хонадон соҳиблари «Болам, уруш вақти туғилдинг, аммо умринг уруш кўрмай ўтсин. Бу уруш тезда тугаб, тинчлик-осойишталикда катта бўлгин», дея яхши ниятлар қилишди...

Ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги полковник Уйғур Султонов бу йил 83 ёшга тўлади. Бу салкам минг ой умр кўрди, де-

лавозимларида хизмат қилган.

Анджон вилоятида хизмат сафарида бўлиб, ўта оғир жиноятларни содир этган жиноий гуруҳ қилмишини тергов қилаётган гуруҳ раҳбари, Ички ишлар вазирлиги Тергов бошқармаси бошлиғининг ўринбосари Уйғур Султоновни қамоққа олишибди, деган шум хабар нафақат вазирлик раҳбариятини, балки уни билган, яқиндан таниган кишиларда, ҳамкасблари

мудҳиш кунларни эслайди қаҳрамонимиз. – Ҳеч кимга пора бермаганман, буларнинг бари тухмат, деб туриб олдим. Қизиқ-да, бошлиғим билан қўйи тизимларда бирга ишлаганмиз. Иш юзасидан кўп маслаҳатлашганмиз, бир-биримиздан сўраб ўрганганмиз. Менинг лаёқатим ва қобилиятимни билгани учун у мени ўзига ўринбосарликка таклиф қилган. Мени ишга олинг, деб, пул бериш у ёқда турсин, ҳатто илтимос ҳам қилмаганман. Қизиғи шундаки, пул бераман, десам, ўртага одам қўйиб нима қиламан. Ўзим бераверишим мумкин эди-ку.

Тилла соат менда қайдан бўлсин. Уйимда тинтув ўтказишибди. Кутубхонадан бошқа ҳеч нарса топиша олмаган. Аёлимни сўроқ қилишибди. «Уйингизга кимлар келарди? Эрингиз кимлар билан дўстлашган, улар билан нима ҳақда гаплашарди?», деб анча сўроқ қилишган. Бир-икки ойдан сўнг уларни тинч қўйишибди.

Хуллас, олти ой тергов ҳибсхонасида ётдим. Бақир-чақир, дўқ-пўписа, уриш-сўкиш ва қийноқларни айтмай қўя қолай. Тана азоби ўтиб кетади, аммо виждон азоби ўтмайди. Шунинг учун қанча азоб бермасин, чидадим. Бўхтонни бўйнимга олмадим. Бировга тухмат қилишни ўзимга ор билдим. Қандай қилиб, мен уларга тухмат қиламан. Эртага юзига қандай қарайман... Мен билан бир хонада ўтирган Убайдулла Тожионов ҳам ўзига қўйилган айбловларни қатъий рад этди.

Икки ой уйдагиларим билан учраштиришмади. Озиқ-овқат олишга рухсат беришмади. Булар қонунга хилоф эди. Ахир, мен терговчиман, тергов процессини, маҳбусларни сақлаш ва сақлашни тартибини яхши биламан-ку. Шунинг учун улар билан курашдим. Икки ойдан сўнг уйдан озиқ-овқат ола бошладим. Бир ўзимга, адашмасам, ўнталар терговчини алмаштиришди-ёв. Ҳеч қайсиси айбимни бўйнимга қўёлмади. Олти ойдан сўнг ҳибсда сақланиш муддатим тугагач, ё айбимни исботланглар, ё айбсиз, деб қўйиб юборинглар, деб ариза ёздим. Гдланинг олдига чақиринди. У мени роса авради: фалончиларга қарши кўрсатув берсанг, у бўлади, бу бўлади, деб...

Ивановнинг олдига туширишди. У роса дўқ қилди. Майли, сени қўйиб юборамиз, лекин 3 ой уй қамоғида ўтирасан. Ҳеч қаерга чиқмайсан, шунга тилхат ёзиб



бер, дейди. Мен тилхат ёзмайман, дедим. Чунки бу ёқамга илмоқни ихтиёрли иқиб олишим билан баробар эди. Мен ёзмадим. Улар асоссиз яна уч йил ушлашди. Вазият анча ўзгарди. Охири бир куни Москвадан, ҳарбий прокуратурадан У.Султоновнинг ҳаракатларида жиноят аломатлари бўлмагани учун реабилитация тариқасида жазодан озод этилсин, деган мазмунда жавоб келди.

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг 1988 йил 20 январдаги хатига кўра, 1987 йил ноябрда У.Султоновга нисбатан қўзғатилган жиноят иши СССР Ҳарбий прокуратураси томонидан тугатилган. Шу билан бирга, у ўша йили 25 февралда ички ишлар органларига тикланиб, ўз лавозимига тайинланган.

Сўнгра ИИБ раҳбарияти топшириғи асосида Транспортдаги ИИБда хизмат қилиб, 1990 йилда пенсияга кузатилган.

Тўрт девор орасида ўтган кунлар эсига тушса, У. Султоновнинг кайфияти бузилади. Нега, нимага, нима учун деган саволлар айбсиз айбдор учун ҳали-ҳануз жумбоқ, тушунарсиз. Кўнгилда ярадай қотиб қолган.

– Халқимиз бежиз сув балоси, ўт балоси ва тухмат балосидан ўзинг сақла, деб дуо қилмас экан. Инсон тақдирида нима бўлса, ўзи сабабчи бўлади, дейдилар. Йўқ, фақат ўзи эмас, баъзан тузум ҳам, тизим ҳам сабабчи бўлиб қолиши мумкин экан. Шунинг учун, аввало, юртимиз тинч бўлсин. Мустақиллигимиз абадий бўлсин. Мустақил бўлганимизда бу кўргиликларни кўрмасмидик, бу азобларни тортмасмидик, дейман-да, дейди устоз Уйғур Султонов хўрсинганча.

**Шухрат РЎЗИЕВ,
ўз мухбиримиз.**



гани. Аммо шу минг ойнинг минг куни, яъни 3 йилдан зиёдроғи зулматда, қамоқхоналарда ўтди...

У. Султонов армия хизматини ўтаб, Тошкент давлат университетининг юридик факультетига ўқишга киради. 1967 йилда ўқишни муваффақиятли тугатгач, тақсимот асосида Ички ишлар вазирлигига юборилади. Дастлаб хизматни ҳозирги Мирзо Улуғбек тумани ИИБда терговчиликдан бошлайди. Кейин Тошкент шаҳар ИИБ ва ИИБ Тергов бошқармасида терговчи, катта терговчи, муҳим топшириқлар бўйича катта терговчи, бўлим бошлиғи ва бошқарма бошлиғининг ўринбосари

ва қўл остидаги ходимларда кескин таажжуб уйғотди.

Уни Анджондан Тошкентга поездда олиб келиб, Давлат хавфсизлик хизмати биносининг ертўласига ташлашди. «Сен бошлиғинг Саркис Калустянга фалончи орқали пора бергансан. Ва яна ўша вақтдаги вазир Ҳайдар Яҳёевга лавозимга ўтириш учун унинг қўёви орқали пора тариқасида тилла соат совға қилгансан» деган айбловларни қўйишди.

– Мен барча айбловларни кескин рад этдим, – дея ўша



▶ USTOZ – SHOGIRD

TAJRIBA VA YOSHLIK UYG'UNLIGI

Ichki ishlar organlarida keng tus olgan «ustoz-shogird» an'anasi xizmatga endigina kirishgan yosh xodimlarning kasbiy-axloqiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tajriba va bilim almashinuvi yetarli malakaga ega bo'lmaganlar uchun hamisha tabiiy ehtiyoj bo'lib kelgan.

Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi safida yoshlar 10–15 yildan beri xizmat qilib kelayotgan xodimlarga birlashtirilgan. Ulardan biri – katta operator, katta serjant Elnazar Egamov 2015-yildan buyon TVBSO safida yurt tinchligi yo'lida xizmat qilib kelmoqda.

U ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2011-yilda 2-sonli tergov izolyatori nazoratchisi sifatida boshlagan. Keyinchalik IIV Akademiyasining Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha oliy kurslarini tamomladi. TVBSOda dastlab snayper bo'lib xizmat qilgan, o'tgan yili esa katta operator etib tayinlandi. Andijon davlat universitetining sirtqi bo'limi 4-bosqich talabasi.

Xizmat yillari davomida katta serjantlar Nozimjon Norxo'jayev, Iminjon Iminov, Akramjon Karimov va serjant Abdujabbor Bahridinov kabi qator munosib shogirdlarni tarbiyalagan Elnazar Egamov mustaqillikni himoya qilishga, tashqi va ichki dushmanlarga qarshi

kurashishda jonbozlik ko'rsatishga, vatan himoyasi yo'lida jonini fido qilishga tayyor. U o'ziga ko'p narsani o'rgatgan ustoz, kichik serjant Qobuljon Shamsiyevni doimo minnatdorlik bilan tilga oladi.

Katta serjant Nozimjon Norxo'jayevni bolaligidan huquqni muhofaza qilish organlaridagi xizmat o'ziga jalb qilardi. Shu bois maktabni tugatgach, TVBSOda xizmat qilishga qat'iy qaror qildi. Tajriba orttirish maqsadida avval muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytdi va shundan so'ng Andijon viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasining alohida batalyoniga xizmatga qabul qilindi. Bir necha yil o'tgach, N. Norxo'jayev tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadiga qabul qilindi.



– Bizga qonun doirasida odamlar bilan munosabatda bo'lish, hamkorlik qilish, xizmatni o'tash vaqtida o'zini to'g'ri tutishni o'rgatishadi. Biz bir butunmiz, bir oilamiz, har bir ishda bir-birimizga yelkadoshimiz, – deydi Nozimjon. – Uzoq yillar xizmat qilgan, tajriba orttirganlar har doim yoshlarni o'z kasbiy malakasini oshirishga chaqirib, ularga otryad tarixi, xodimlari, ilgari yengib

o'tilgan qiyinchiliklar haqida gapirib berishadi. Katta serjant Elnazar Egamov otryadagi ilk kunlarimdan boshlab menga ustozlik qilib, qiyinchiliklarni yengib o'tishga va doim oldinga intilishga o'rgatdi.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Suratda: ustoz va shogird: katta serjantlar Elnazar Egamov va Nozimjon Norxo'jayev.

▶ XIZMATLARDA

MEHR BILAN HAYOT CHAROG'ON



Inson ko'ngli doim mehrga chanqoq. Ayniqsa, kishi keksayganida ko'ngilchan bo'lib qoladi. Guliston tumani IIB M va FRB inspektori, kichik serjant Aida Kurbanova «Baxmal» mahallasi tomon ketarkan, ko'nglidan shunday o'ylar kechdi.

Hozir boradigan xonadondagi otaxon sakson bir yoshda. Fuqarolik hujjatini rasmiylashtirish uchun o'zi kelolmaydi. Keksalik to'shakka mixlab qo'ygan. Buyoqda pasportini almashtirish muddati yetib kelgan.

Otaxonning barmoq izlarini olish unchalik qiyinchilik tug'dirmadi. O'sha kuni otaxonga zamonaviy ID-karta rasmiylashtirib berildi.

– Xonadonimga farishtalar kirib kelgandek bo'ldi, – deydi Sharifjon Mo'minov. – Inson ko'nglini tog'dek ko'tarish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu qizning otasiga balli! Baraka topsin.

Guliston tumani IIB M va FRB tomonidan joriy yilning besh oyi davomida qariyb 1500 nafar fuqaroga shaxsni tasdiqlovchi hujjat rasmiylashtirib berildi. Ularning yuzdan ortig'i Sharifjon ota singari nuroniylar. To'qqiz yuzga yaqini esa 16 yoshga to'lib, endigina hayotga qadam qo'yayotgan otashqalb yoshlar.

– Yoshlarning ilk fuqarolik hujjatini qo'lga kiritganidagi hayajonini ko'rish zavq beradi, – deydi Aida Kurbanova. – Ularga qarab Vatanimiz kelajagi ishonchli qo'llarda ekanidan faxrlanamiz. Zamonaviy ID-kartani rasmiylashtirish jarayoni uzoq vaqt olmaydi. Yoshlarimizni zamonaviy texnologiyalar aslo ajablantirmaydi. Ular barcha talablarni juda oson bajarishadi.

Aida Kurbanova hayotda o'z o'rnini topgan ayollardan. Bir nafar farzandning onasi. Turmush o'rtog'i, farzandi bilan shirin turmush kechirayotganidan, o'zi sevgan kasbga ega bo'lganidan mamnun. Shu bois xizmat joyiga qanday shoshilib borsa, uyga ham xuddi shunday quvonch bilan qaytadi. Shuning o'zi katta baxt, aslida.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING IMIJINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING AHAMIYATI

Ishonchim komil, o'z vazifasini halol va vijdonan ado etadigan ichki ishlar organi xodimi el-yurt o'rtasida albatta munosib obro'-e'tibor topadi.

Shavkat MIRZIYOYEV

IMIY – ISHONTIRISH YOKI YOQISH USULI...MI?

Davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlar jarayonida «imij» tushunchasi alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasiga ko'ra, imij (inglizcha image, lotincha imago – timsol, ko'rinish) – shaxs, hodisa, narsaning ommalashtirish, reklama qilish maqsadlarida odamlarga hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatishni ko'zlab shakllantiriladigan qiyofasi; targ'ib qilish vositalaridan biri.

«Imij» tushunchasi reyting, obro', mashhurlik, joziba, maftunkorlik, e'tibor, nufuz va boshqa tushunchalar bilan hamohang. Blez Paskalning fikricha, insonlarga ta'sir qilishning ikki usuli mavjud: ishontirish usuli, yoqish usuli. Ikkinchisi samaraliroqdir, negaki insonga yoqmay turib, uni ishontirish qiyin. Imij nafaqat obraz, qiyofa, balki unga bildirilgan munosabat va u haqdagi fikrlar majmui, shaxsning axloqiy mohiyati va unga muvofiq tashqi ko'rinish mutanosibligi hamdir.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, imij 4 turga: kasbiy, ijtimoiy, oiladagi va shaxsiy turlarga bo'linadi. U tashqi ko'rinish, kiyinish madaniyati, urf-odatlar, faoliyat va sa'y-harakatlar, inson axloqi, o'zini tutishi, maqsadlari, do'stlari va munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ichki ishlar organlari xodimlari imijining tarkibiy qismlari sifatida tashqi ko'rinish; huquqiy ong; shaxsiy sifatlar; kirishimlilik belgilangan.

Ushbu sifatlarini jamoatchilik e'tiboriga yetkazishda ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Umuman, ommaviy axborot vositalari insonlarning fikrlash darajasiga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan aytish mumkinki, ular ichki ishlar organlari xodimlari imijini oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

XALQCHIL TUZILMA

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari boshchiligida ichki ishlar organlari xodimlarini xalqqa yaqinlashtirish, el-yurt dardi va tashvishi bilan yashashga, xizmat qilishga qaratilgan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonda yangi ichki ishlar organlarini shakllantirish, aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, ijtimoiy yo'naltirilgan professional xalqchil tuzilmaga aylantirish barobarida uning imijini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 20-yanvardagi «Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu borada qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi.



Barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarini sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish, xodimlarning bilim saviyasini yanada yuksaltirish, ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

IMIY YARATISH MAS'ULIYATI

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmatni bevosita fuqarolar ko'z o'ngida amalga oshiradi, demakki, fuqarolar bilan muloqotda ochiq va samimiy bo'lish, dardini eshitish, ularning murojaatlari bilan ishlashda haqqoniy bo'lish zarur.

Keyingi paytlarda xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilish, ularni haqorat qilish, xatti-harakatlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatishni shantaj qilish holatlari ham uchrab turibdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda osoyishtalik posbonlarini obro'sizlantirish, voqelikni noxolis bo'rttirib ko'rsatish holatlari kuzatilyapti.

Binobarin, ichki ishlar organlarida imij yaratish mas'uliyatli, shu bilan birga, birmuncha mashaqqatli. Masalan, profilaktika inspektorining xalq orasida o'z imijini yaratishida tashqi ko'rinishning o'zi kamlik qiladi. O'z ustida tinimsiz izlanish, fuqarolar huquq va erkinliklarining haqiqiy himoyachisi bo'lish, xalqning og'ir damlarida eng yaqin ko'makchisi, hammaslagi bo'lish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaxshi bilimziki, xodimning imijini oshiradigan jihatlardan yana biri uning ma'naviyatidir. Inson kamoloti va ma'naviy dunyoqarashi esa kitob orqali yuksaladi. Shuning uchun shaxsiy tarkib o'rtasida kitob va kitobxonlikni targ'ib qilish, mutolaa madaniyatini oshirish, kutubxonalar fondini boyitib borish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Imij → obraz (tasvir) → taassurot → ovoza (mish-mish) → nom → shuhrat → obro' → ijtimoiy fikr.

Soha vakillari el orasida obro' qozonishlari, imijini oshirish uchun, avvalambor, zimmlaridagi vazifalarni sidqidildan bajarishlari lozim. Har bir xodim fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala bo'lishi, kasbiy va huquqiy bilimlarini muttasil oshirish ustida tinmay izlanishi zarur. Ana shunda muayyan maqsad va muddalarga erishiladi.

XORIJ TAJRIBASI

Xorij tajribasi huquqbuzarliklar profilaktikasida yangi ish uslublarini qo'llash, aholi va jamoatchilik bilan yaqin muloqotni yo'lga qo'yish, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish lozimligini ko'rsatmoqda.

Rus tadqiqotchisi S. Naumov «Ichki ishlar organlari xodimlarning imiji – bu ularning eng xarakterli va tipik xususiyatlarini ochib beruvchi murakkab tasvirdir» deb fikr bildirgan bo'lsa, A. Syomik unga «xizmat vazifalarini bajarishda namoyon bo'ladigan ijtimoiy xatti-harakatlar namoyishi» deb ta'rif bergan. Boshqacha qilib aytganda, tizim xodimining imiji bu – jamoatchilik nigohidagi tizim xodimlarining tasviri bo'lib, ular xizmat faoliyatining xarakteri va xususiyatlarini namoyon qiluvchi murakkab jarayondir.

XXI asr boshlarida Rossiyada ichki ishlar organlari tizimida jinoyatchilikning o'sishi, qonunlarga beparvolik bilan munosabatda bo'lish holatlarining oshishi va fuqarolarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lish kabi tizimli muammolar yuzaga keldi. Bu omillar mamlakatda ichki ishlar organlariga nisbatan jamoatchilik ishonchining pasayishiga olib keldi, imijiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu holatlarni bartaraf etish Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan Ichki ishlar vazirligi tizimida keng ko'lamli islohotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirildi. Xususan, 2009-yil 24-dekabrda «Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi qarorda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, tizimni modernizatsiya qilish, jumladan, ularning faoliyat samaradorligini oshirish, kadrlar muammosini hal etish hamda sohaning moliyaviy va moddiy-texnik holatini yaxshilash ko'zda tutilgan.

Rossiya Federatsiyasida politsiya organlari axborot xizmatlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda politsiya xodimlari faoliyatiga nisbatan salbiy axborot tarqalishiga qarshi quyidagi yo'nalishdagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- 1) axborot maydonini monitoring qilish;
- 2) tanlangan materiallarni tartibga solish;
- 3) tanlangan kontentlarni vaqt va makon jihatdan bog'lash;
- 4) salbiy videoroliklarga ekspetrlar bahosini berish;
- 5) targ'ibot roliklarini ishlab chiqish;
- 6) targ'ibot roliklarini axborot maydoniga chiqarish.

Gruziyada ichki ishlar organlari tizimini isloh qilish quyidagi yo'nalishlarda olib borildi: birinchidan, institutsional-tarkibiy o'zgarishlar, ikkinchidan, kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, uchinchidan, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, to'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash va beshinchidan, moddiy-texnik bazani yaxshilash kabilar.

Yangi politsiyachilar ochiq tanlov asosida jalb etilib, ularda huquq-tartibot idoralarida tajribaga ega bo'lgan shaxslar ishtirok etmaydilar. Nomzodlarni yollashda g'arb me'yorlariga muvofiq ishlab chiqilgan psixologik testlardan foydalaniladi, bu esa politsiya xodimlarining o'rtacha intellektual darajasini oshirish va beqaror yoki tajovuzkor psixikaga ega bo'lgan nozodlardan voz kechish imkonini beradi.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratsak, ular tomonidan politsiya faoliyatiga oid ko'plab filmlar, teleseriallar va videolavhalar ishlab chiqilgani ko'rinadi. Bunda politsiya haqida jamoatchilikda ijobiy tushunchalarni hosil qilish maqsadida asosiy e'tibor ko'proq politsiya xodimlarining imijini tashkil etuvchi komponentlarga qaratilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Azaldan Sharq jahon madaniyatining eng asosiy o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Ana shu buyuk madaniyat xodimlarimizning ma'naviy jihatdan yuksalishiga, shubhasiz, imijini ko'tarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.



IIV Qorovul qo'shinlarida

INTILGAN MURODGA YETADI

IIV Qorovul qo'shinlari 7536-harbiy qism 3-batalyoni 3-toifali nazoratchisi, oddiy askar Mirshod Sharopov sportga ham, tanlagan sohasiga ham birdek mehr qo'ygan.

Dastlab maktabdagi erkin kurash to'garigiga qatnashib, sportga qiziqishi oshgan Mirshodjon soliq kollejida tahsil olayotganida Buxoro shahridagi «Umid» klubida murabbiyi Homid Rahmatovga shogird tushib, boks bilan shug'ullandi. Shahar va viloyat miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egalladi.

Muddatli harbiy xizmatni o'tagach, 2022-yil IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonligiga hujjat topshirdi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, 7536-harbiy qismda maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodida katta mutaxassis lavozimida xizmat faoliyatini boshladi.

– Oddiy askar Mirshod Sharopov qobiliyatli, o'ziga nisbatan talabchan xodim, – deydi harbiy qism Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar

bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Elyor G'afforov. – Uning yutuqlarini ikki yil davomida kuzatib kelaman. Erishgan yutuqlari arzigulik. Misol uchun aytadigan bo'lsak, 2023-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonligining boks bo'yicha birinchiligida o'z vazn toifasida birinchi o'rinni egalladi. Yaqinda jangovar sambo bo'yicha Qorovul qo'shinlari qo'mondoni kubogida ham faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Bunday yutuqlarga erishishda, albatta, ustozlarining xizmati katta. Sport sohasida Homid Rahmatov, Azamat Ergashovlarning, kasb sohasida esa mayor Nuriddin Jo'rayev, kapitan Adiz Ravshanovlarning maslahati va yo'l-yo'riqlari asqatmoqda.

– Kimki yaxshi niyat qilib, maqsad sari qat'iylik bilan intilsa, u, albatta,



murodiga yetadi, – deya ta'kidlaydi lavhamiz qahramoni.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

BILASIZMI?

ESKIJO'VA

«Eskijo'va» Sebzor dahasining qadimiy mahallalaridan biri bo'lgan. Mahsido'zlik ko'chasida mahalla hunarmandlarining asosiy qismi joylashgan bo'lib, savdo-sotiq qaynagan joylardan biri hisoblangan. Vaqtlar o'tib bu qadimiy mahalla ham markaziy bozorning bir qismi va keyinchalik bozorning asosini tashkil qilib, Eskijo'va nomi bilan atala boshlangan.



Professor X. Hasanov «Eskijo'va» – mahalla nomi, harbiy aslahalar ombori (jo'vaxona) bo'lganidan bu joy shunday nom olgan, deydi. Haqiqatan ham, jiba «sovut» degan so'z.

Qadimshunos olim V. Bulatova esa taniqli olim O. Smirnova asarlarida «eski» so'zi so'g'd tilida «baland» degan ma'noni anglatishi keltirilganini yozadi. Bu termin qadimiy Toshkentga juda mos degan xulosaga kelib, Eskijo'va «baland bozor» degani, deydi va isboti tariqasida «Toshkent» yetti soy va yetti tepalikdan qad ko'targan, degan afsonani keltiradi.

XVI asrda Toshkentning o'rdasi eski shahar qismidan Beshyog'och tarafga ko'chirildi. Tabiiyki, uning qurol-aslahaga saqlanadigan ombori ham yangi joyga ko'chiriladi. Eski omborxonada esa eski jiba, ya'ni, eski omborxonada nomida qoladi. Vaqtlar o'tishi bilan jiba jo'va ko'rinishini olib, Eskijo'va deb atala boshlangan.

HUDUDLARDA NIMA GAP?

AMALIY ISHLAR SAMARASI

Pastdarg'om tumani uchinchi sektori hududidagi 26 ta mahallada 21 mingdan ziyod oila istiqomat qiladi. Yil boshidan buyon bu yerda tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Ma'ruf Qo'ziyev rahbarligida qishloq ahli farovonligini oshirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Aholisining turmush sharoitini o'rganishda maxsus daftarlarga kiritilgan ehtiyojmand, kam ta'minlangan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Yoshlar muammolarining asosiy qismi bandlik, moddiy yordam olish, shuningdek, harbiy xizmat va oliy o'quv yurtlarida kontrakt to'loviga ko'maklashishga taalluqli bo'lib, ularga huquqiy maslahatlar berilmoqda, yuqoridagi masalalar yechimi bo'yicha amaliy choralar ko'rilmoqda. Sektor shtabi a'zolari va mas'ul idoralar vakillariga mahallalardagi vaziyatni o'rganish, har bir yosh bilan suhbat o'tkazish, ularning qiziqish va ehtiyoj-

larini aniqlash va shu asosda manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi. Shunga ko'ra, xususan, «Temirxo'ja» mahallasida kasb-hunar o'rgatish kurslari tashkil etildi.

«Ayollar daftari»ga kiritilgan ayollarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik, moddiy, tibbiy va boshqa yordamlar ko'rsatildi. Jumladan, 46 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlandi, 26 nafariga o'z ishini ochish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi.



Shuningdek, «Bir mahalla – bir mahsulot» dasturi doirasida o'z mikroloyi-halari bilan chiqqan 145 ta oila qamrab olindi. Shaxsiy tomorqalarda xorij bozori hamda respublikamizda talab katta bo'lgan mahsulotlar, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish borasidagi eng yaxshi 10 ta loyiha moliyalashtirildi.

Sektor rahbari ishtirokida o'tkazilayotgan sayyor qabullar, uchrashuvlar amaliy yordam ko'rsatishning ajralmas qismidir. Yil boshidan buyon tuman-dagi mahallalarda 46 ta sayyor qabul, shundan 20 tasi yoshlar bilan o'tkazildi. Ushbu uchrashuvlar chog'ida 428 nafar fuqarodan 430 ta muammo kelib tushdi.

Bir so'z bilan aytganda, uchinchi sektorda amalga oshirayotgan ibratli ishlarni rivojlanish sari qo'yilgan dadil qadam, deya ta'riflasak arziydi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



Урок духовности и просвещения

ЗНАЧЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ФОРМИРОВАНИИ ИМИДЖА СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Требования, определенные в Кодексе профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников ОВД, направлены на укрепление у стражей правопорядка честного, добросовестного отношения к служебным обязанностям, ответственности и инициативности, искреннего осознания долга перед Родиной. Беспрекословное следование положениям Кодекса обязательно для каждого сотрудника.

Кодекс профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников ОВД нацелен на преобразование органов внутренних дел в подлинно народную профессиональную структуру и ориентирование их работы на более тесное взаимодействие с населением, на укрепление положительного имиджа сотрудников и правоохранительной системы в целом.

Под имиджем правоохранительной системы подразумевается эмоционально окрашенный образ ведомства, целенаправленно создаваемый и оказывающий психологическое воздействие на различные социальные группы.

В Узбекистане оценка обществом института ОВД в целом демонстрирует положительную динамику, в том числе по таким важнейшим индексам, как одобрение деятельности; уровень доверия. Данные показатели требуют продолжения осуществляемой системной работы, в том числе с учетом передового зарубежного опыта.

Формирование положительного имиджа ОВД в глазах гражданского общества – актуальный вопрос правоохранительной системы многих стран. Существующие успешные практики изучения общественного мнения, создание имиджа как отдельных сотрудников, так и всей правоохранительной системы с использованием социальных сетей и площадок СМИ демонстрируют свою эффективность. При этом применение этих практик требует комплексности, качественного взаимодействия органов правопорядка, СМИ, общественных организаций.

Одной из результативных и информативных форм работы является мониторинг общественного мнения. Такие исследования, к примеру, регулярно проводятся в США. Например, международное аналитическое и консалтинговое агентство Gallup ежегодно проводит опрос населения о том, какие профессии они считают наиболее этичными и честными, на основе полученных данных разрабатываются специальные проекты.

В странах Европы регулярно проводится исследование доверия населения к полиции, по результатам которых сделаны выводы:

глобальное доверие к полиции положительно коррелирует с доверием к политическим и правовым институтам, к процессуальной справедливости;

оценки работы местной полиции влияют на мнение о полиции в целом;

чем выше социальное доверие в стране – доверие к незнакомым людям, к их справедливости и доброжелательности, тем выше доверие людей к полиции.

Анализ зарубежных практик построения положительного имиджа правоохранительных органов позволяет отметить их направленность на «очеловечивание» сотрудников. В США департаменты по связям с общественностью полиции совместно с университетами организуют ежегодные анкетирова-




ния среди жителей, чтобы оценить степень их удовлетворенности полицией и иных правоохранительных органов. При этом широко используются социальные сети. Они применяются не только для информирования о деятельности правоохранительных органов и прямого взаимодействия с населением, но и для продвижения новых сотрудников-руководителей в местных СМИ (биография, уровень образования и подготовки в академии, личные качества, хобби). Также руководители правоохранительных органов стремятся чаще появляться на публике и посещать общественные мероприятия для повышения доверия к себе, поддержания положительного образа сотрудников.

Успешно применяется практика развенчания мифов о том, как работает полиция. Повышению прозрачности работы посвящены книги «Doing Prison Work» Элани Кроули, «Media, Crime, and Criminal Justice» Рей Суретт, «The Crime Fighter» Джека Мейпла и Криса Митчелла и др.

В Великобритании Центром знаний по проблемам сексуальной эксплуатации детей и деятельности полиции создано пособие для сотрудников правоохранительных органов

о принципах общения полицейских с детьми и молодежью так, чтобы установить с ними доверительный контакт и максимально эффективно оказать помощь. Усиление академической подготовки сотрудников курсами повышения квалификации, например, по вербальной и невербальной коммуникации, по кризисному вмешательству, обучению деэскалации и снижению стресса, а также по эффективному обращению с людьми, страдающими эмоциональными расстройства-



прицелом», «След» и др. В них режиссеры стараются воспроизвести будни службы правоохраны, формируя образ «работяги» – умного, находчивого, порядочного, принципиального.

С целью решения задач формирования положительного имиджа правоохранительных органов при Российской Академии народного хозяйства и государственной службы создан Центр исследований проблем общественной безопасности и правопорядка. Центр организует взаимодействие между МВД, Следственным комитетом, Федеральной службой исполнения наказаний, Интерполом, Росгвардией, Прокуратурой, правозащитными организациями, а также молодежными общественно-политическими объединениями. К задачам Центра относятся: изучение лучших практик взаимодействия органов правопорядка, правозащитных организаций в целях улучшения коммуникации и сотрудничества; привлечение экспертов для проведения исследований и подготовки информационных материалов по использованию методик в сфере повышения доверия общества к правоохранительной системе; реализация программ дополнительного образования в сфере взаимодействия правоохранительных органов и общественных структур.

Информационные службы системы МВД Узбекистана с учетом своей специфики внедряют в деятельность указанные формы работы, выстраивают результативное сотрудничество со СМИ, государственными и общественными организациями, осознавая, что доступность, информативность их ресурсов – важный фактор повышения доверия граждан к органам правопорядка.

Подготовил
Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.





TABRIKLAYMIZ!

27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan o'tkazilgan «Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan eng yaxshi material» tanlovining «Gazeta va jurnal (Axborotnoma-Byulleten)larda chop etilgan materiallar» yo'nalishi bo'yicha e'lon qilingan materiallar uchun Birlashgan tahririyatning Farg'ona viloyati bo'yicha o'z muxbiri Abduvosit Siddiqov hamda tahririyatda uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan Sherzod Abdusamadov rag'batlantirildi. Hamkasblarimizni chin dildan qutlagan holda, kelgusi ishlarida ijodiy parvozlarni tilaymiz!

IIV BIRLASHGAN TAHRIRIYATI.

SARHISOB

SAMARADORLIKNING MUHIM OMILI

Har qaysi sohada samaradorlikka erishishning eng muhim omili tartib-intizom hisoblanadi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarida jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarning osoyishtaligini, haq-huquqlarini ta'minlash borasida tartib-intizomning o'rni juda katta. Shu bois mazkur sohada hamisha bu omilga alohida e'tibor qaratiladi. Joriy yilning iyun oyida ichki ishlar organlarida «Qonuniylilikni ta'minlash va temir intizom oyligi» o'tkazilgani bu boradagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirdi.

IIV huzuridagi JIED va uning joylardagi mintaqaviy muvofiq-lashtirish markazlari hamda tizim tasarrufidagi muassasalarda ham salmoqli ishlar qilindi. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish, halollik, fidoyilik va vatanparvarlik kabi ezgu tushunchalarni targ'ib qiluvchi peshlavhalar tayyorlanib, joylarga o'rnatildi.

Tahlillarga asoslangan holda jazoni ijro etish tizimi tarkibiy tuzilmalari «qizil», «sariq», «yashil» toifalarga ajratilib, aniq maqsadlarga qaratilgan profilaktik tadbirlar olib borildi. Aniqlangan kamchiliklar tezkor yig'ilishlarda shaxsiy tarkib o'rtasida muhokama qilindi.

Ta'kidlash joizki, xodimning xizmat burchiga bo'lgan sadoqati, tartib-intizomga rioya etishida

oilaviy muhitining ham ahamiyati katta. Shu bois osoyishtalik posbonlarining oila a'zolari bilan uchrashuvlar tashkil qilinib, hamkorlik masalalari haqida suhbatlar o'tkazildi.

Xodimlar shaxsiy va xizmat avtomobillarini yo'l harakati qoidalariga amal qilgan holda, tegishli hujjatlar asosida boshqarishlari

shaxsiy tarkib bilan psixologik treninglar o'tkazilib, jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhit o'rganildi. Psixologik testlar olinib, mutaxassislar tomonidan tahlil qilindi.

Poraxo'rlik, tamagirlik, xizmat vazifasini suiiste'mol qilish kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan suhbatlar o'tkazilib, videoroliklar namoyish etilgani

da soha faxriylarining o'rni katta. Shu tufayli tizimda faxriylar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlarini o'tkazib borish an'anaga aylangan. Mazkur oylik doirasida ham uch avlod uchrashuvlari tashkil etilib, ularda ko'p yillar tizimda samarali xizmat qilgan e'zozli faxriylar qatnashdi. Bundan tashqari, xodimlarda milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish maqsadida muzey va ziyoratgohlarga sayohatlar uyushtirildi. Ular oila a'zolari bilan teatrlarda spektakllar tomosha qilishdi.

Yosh xodimlarning professional bilim darajasini oshirish, dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirish maqsadida «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida «Zakovat» intellektual o'yinining departament bosqichi o'tkazildi. Unda jami sakkiz jamoa ishtirok etdi. Qizg'in va murossasiz kechgan bahslarda departament markaziy apparatining «Vatanparvar» jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Kezi kelganda aytish kerakki, tartib-intizom nafaqat muayyan oylik doirasida, balki har doim, hayotimizning har bir jabhasida muhimdir. Shuning uchun bu hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydigan masalalardan bo'lib qolaveradi. Zero, tartib-intizom bo'lgan joyda yuqori samaradorlik bo'ladi.

Gafur KURAMBAYEV,
IIV huzuridagi JIED boshlig'ining
o'rinbosari, polkovnik.



bo'yicha targ'ibot tadbirlari olib borildi. Oylik doirasida ijro intizomi va boshqa shu kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratilib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf qilindi.

Shuningdek, xodimlarning yashash sharoitlari o'rganilib, moddiy yordamga ehtiyoji bo'lganlarga departamentning markazlashtirilgan jamg'armasi hisobidan mablag'lar ajratilishi yo'lga qo'yildi. Malakali psixologlar ishtirokida

kelgusida yaxshi samara berishi shubhasiz. Ayniqsa, xodimlar uchun korrupsiyaning oqibatlarini, unga qo'l urganlarning afsus va nadomatlarini aks etgan videofilm namoyish etilgani natijasiz ketmadi. To'rt nafar xodim xizmat vazifasini bajarish chog'ida o'ziga pora taklif etilayotgani haqida rahbariyatga axborot berdi.

Yosh xodimlarda xizmat burchiga sadoqat, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish-

AN'ANA

USTOZ BILAN YELKAMA-YELKA

Shofirkon tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, kapitan Abbas G'afrovni hamkasblari soha fidoyisi sifatida qadrlashadi. Bunday hurmatga samimiyligi, hech kimdan yordamini ayamasligi hamda ishiga sidqidildan yondashishi orqali erishgan. Shuningdek, u «ustoz-shogird» an'alarini davom ettirib, ishga yangi qabul qilingan yosh profilaktika inspektorlariga boy tajribalarini o'rgatib kelmoqda.

– Ustozim bilan yelkama-yelka, yonma-yon turib xizmat qilayotganimdan faxrlanaman, – deydi leytenant Mirshod Nurillayev.

– U kishidan fuqarolar tomonidan tushadigan ariza va shikoyatlarni o'rganish, ma'muriy hujjatlarni

yuritish, qisqasi, sohaviy bilimlarni puxta o'zlashtirish hamda jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sir-asrorlarini qunt bilan o'rganmoqdaman. Shuningdek, Abbas aka o'z hududlaridagi aholining tinchlik-xotirjamligini ta'minlashdan ortib, men singari boshqa profilaktika inspektorlariga ham yo'l-yo'riq ko'rsatib kelyapti.

O'qish, o'rganish va izlanish har qanday kasbda ham mahoratni oshirishning bosh omilidir. Tuman IIBda yaxshi yo'lga qo'yilgan an'ana yoshlarning kasb sirlarini mukammal o'rganishlarida muhim ahamiyat kasb etyapti.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

O'TGAN UMRIMGA ACHINMAYMAN

– deydi iste'fodagi mayor Akmal Azimov

Halollik – inson qalbiga halovat baxsh etuvchi fazilat. Iste'fodagi mayor Akmal Azimov qariyb 30 yil ichki ishlar organlarida halol, sidqidildan xizmat qilib, hamkasblarining, aholining hurmatini qozongan faxriylardan biri.

Lavhamiz qahramoni ilk xizmat faoliyatini 1978-yilda Nurota tumani vaqtinchalik saqlash hibsxonasida militsioner lavozimidan boshlagan edi. Mehnatsevar, qiyin-

chilikdan cho'chimaydigan yosh yigit qisqa vaqt ichida hamkasblari orasida o'z o'rnini topdi.

U 1982-yilda patrul-post bo'linmasi komandiri, bir yildan so'ng uchas-

ka inspektori vazifasida, 1985-yildan tuman IIB Navbatchilik qismida, 1987-yildan esa Tergov bo'limida samarali xizmat qildi. Bu davrda ko'plab jinoyatlarni ochish, qonunbuzarlarni qonun hukmiga topshirishga muvaffaq bo'ldi.

1998-yildan e'tiboran salkam 10 yil davomida Nurota tumani IIB boshlig'ining shaxsiy tarkib bi-

lan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritib, izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatildi. U o'zi ko'z yumib ochguncha o'tgan qisqa fursat, deya ta'riflagan bu yillar mobaynida munosib shogirdlar yetishtirishga ulgurdi.

Ayni paytda uning ishini o'g'illari – podpolkovnik Akbar Azimov jazoni ijro etish tizimida, mayor Avaz Azimov esa Chirchiq shahridagi harbiy qismda davom ettiryapti.

– O'tgan umrimga achinmayman. Faoliyatim davomida shaxsiy manfaatimni davlat, xalq manfaatidan ustun qo'ymadim. Kasbim ortidan halol topganim bilan ro'zg'or tebratdim. Farzandlarim ham shu kunlarni ko'rib katta bo'ldi, o'rnak oldi. Ba'zi tanishlarim: «Akmal aka, shuncha yil ichki ishlar organida xizmat qilib hech qanday boylik orttirmadingiz-a?!» deb qolishadi. Men bundaylarga ahamiyat bermayman. Asosiysi, mahalla-ko'y, qarindosh-urug'larim, yaqinlarim orasida o'zimga yarasha o'rnim, obro'yim bor, – deydi iste'fodagi mayor A. Azimov.

Akmal Azimov 2007-yilda pensiyaga chiqqach, Nurota tumanidagi «Is-tiqlol qorako'l naslchilik» mas'uliyati cheklangan jamiyatida yuriskonsult lavozimida faoliyat olib bordi. Korxonalar hujjatlarini qonunga muvofiqlashtirish, xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalarni huquqiy jihatdan baholash kabi mas'uliyatli ishlarni amalga oshirdi.

Ayni paytda keksalik gashtini suryapti. Tomorqasida turli sabzavotlar va mevalar yetishtiradi.

U 6 nafar farzand uchun jonkuyar ota, 15 nafar nabiraning sevimli bobojoni.

Akmal Azimov o'zi istiqomat qilayotgan «Bo'diq» mahallasi faollaridan. Mahalladagi barcha tadbirlarni tashkil etishga o'z hissasini qo'shmoqda. Bundan tashqari, mahalladagi yosh oilalar vakillariga turmush, farzand tarbiyasi borasidagi hayotiy tajribalaridan so'zlab beradi, yo'l-yo'riq ko'rsatishdan erinmaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Suratda: Akmal Azimov shogirdi Nurota tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Ma'ruf Rahimov bilan.



■ Ташкентская область

В рамках Месячника повышения куберкультуры, а также проведения комплексных агитационно-пропагандистских мероприятий «Cyber month» в столичной области состоялся брифинг. В мероприятии приняли участие ответственные сотрудники хокимията, ГУВД Ташкентской области, представители СМИ, блогеры.

Специалисты информировали участников об угрозах в киберпространстве, значимости формирования в обществе культуры пользования информационными системами, сетями телекоммуникаций. Охарактеризованы

мероприятия, проходящие в области в рамках месячника, их цели и задачи.

Отмечено, что Центром кибербезопасности МВД совместно с подразделениями ГУВД, а также заинтересованными организа-

циями среди населения организовываются акции «Безопасное пользование интернетом», «Остерегайтесь мошенников!», «Вместе противостояем киберпреступности», конкурс «Лучший национальный контент».

С участием молодежи проводятся онлайн-олимпиады в области IT, обучающие курсы по противодействию киберугрозам.


Охунжон МУСТАФОВЕВ,
лейтенант.



★ Динамовцы

ЛЕГЕНДА СПОРТА

Спортивная жизнь прославленного трекового гонщика, двукратного чемпиона и бронзового призера чемпионатов мира в командной гонке преследования Михаила Колюшева была непосредственно связана с ФСО «Динамо».



Михаил Колюшев (в центре). Чемпионат мира 1967 г. (Амстердам).

Михаил Колюшев родился в 1943 году в Таджикистане. Активно заниматься велоспортом начал в раннем детстве. Проходил подготовку в Душанбе, затем в Тбилиси и Минске. С 1966 года на авторитетнейших состязаниях представлял ташкентское «Динамо».

Первого серьезного успеха на треке он добился в 1965 году, когда стал чемпионом в командной гонке преследования и, попав в основной состав сборной, отправился на чемпионат мира в испанский Сан-Себастьян. Здесь вместе с товарищами по команде одолел всех соперников и завоевал золотую медаль. Год спустя, в числе лучших он выступал на первенстве мира – на соревнованиях во Франкфурте-на-Майне. В 1967 году Колюшев установил мировой рекорд в гите на 1000 метров с ходу.

В 1968 году М. Колюшев, в результате череды побед, удостоился права выступать на летних Олимпийских играх в Мехико.

За выдающиеся достижения он был удостоен почетного звания «Заслуженный мастер спорта».

– После завершения спортивной карьеры в 70-х годах Михаил Иванович плодотворно работал тренером в «Динамо» при МВД Узбекистана, – вспоминает заслуженный наставник молодежи Республики Каракалпакстан полковник в отставке Махаматдин Жарылкаганов. – В течение многих лет он возглавлял учебно-спортивный отдел общества, а с 1975 года являлся заместителем председателя по спорту Узбекского Республиканского Совета «Динамо». Осуществляя деятельность в качестве тренера и организатора спорта, полковник Колюшев демонстрировал присущую ему неутомимость. Проявляя лидерские и организаторские качества, прикладывал макси-



мум усилий к развитию спорта среди сотрудников органов внутренних дел, воспитанию чемпионов-динамовцев.

Выйдя на заслуженный отдых, Михаил Иванович в течение многих лет работал инструктором-методистом по велоспорту в специализированной детско-юношеской спортивной школе олимпийского резерва «Ориента» в Москве, вел работу по пропаганде физкультуры и спорта.

Сегодня Михаила Колюшева нет среди нас. Но дело легендарного спортсмена и талантливого наставника продолжают ученики. Его вклад в развитие общества «Динамо», воспитание чемпионов неоценим.

Соб. корр.



REYD TADBIRI

QOIDABUZARLARGA CHORA KO'RILDI

Urganch shahri hududida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish maqsadida navbatdagi «Nazorat» reydtadbiri o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor qo'pol qoidabuzarlik holatlarini aniqlashga qaratildi.

Viloyat IIB JXX YHXB hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar xodimlari ishtirokida o'tkazilgan bir kunlik reydtadbiri davomida yo'l harakati bilan bog'liq bo'lgan 791 ta qoidabuzarlik aniqlandi. Shundan 161 nafar haydovchi transport vositasini

tegishli hujjatlarsiz boshqargan, 6 nafari YPX inspektorlarining qonuniy talabini bajarmagan, 7 nafari transport vositasi oynalari tusini o'zgartirgan. Eng achinarlisi, 8 nafar haydovchi o'zi va o'z galar hayotini xavf ostiga qo'yib, transport vositasini mast hol-

da boshqargan. Tadbir davomida qoidabuzarlarga tegishli 244 ta avtotransport vositasi belgilangan tartibda jarima maydonchasiga joylashtirildi. Aniqlangan barcha holatlar bo'yicha haydovchilarga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

– Haydovchilarning transport vositalarini spirtli ichimlik iste'mol qilgan holda boshqarayotgani, tezlikni me'yor talablaridan oshirishi, svetofor ishoralarga rioya etmasli-



gi yo'l-transport hodisalarining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot guruhi katta mutaxassisi, kapitan Shavkat Bobojonov. – Shu bois bunday noxush holatlarning barvaqt oldini olish maqsadida mahallalarda, korxon va tashkilotlarda, dam olish oromgohlarida ko'plab profilaktik tadbirlar o'tkazilyapti, targ'ibot materiallari tarqatilmogda.

Reydtadbiri davomida viloyat IIB JXX YHXB tomoni-

dan tashkil etilgan «Targ'ibot avtokarvoni» shaharning aholi gavjum hududlari bo'ylab harakatlanib, ko'rgazmali materiallar, yo'l-transport hodisasiga uchragan avtomobillar orqali targ'ibot ishlarini davom ettirishdi.

Bu kabi reydtadbirlari viloyatning barcha shahar-tuman hududlarida davom etmoqda.

Xudoybergan JABBOV,
o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

IZQUVARLAR HAQIDA HIKOYALAR

OTA DUOSI O'Q YO'NAR

Birlashgan Arab Amirliklaridan Toshkent xalqaro aeroportiga uchib kelgan farg'onalik Afro'za To'rayeva (voqea ishtirokchilarining ismshariflari o'zgartirildi) buyumlarini o'rindiqda qoldirib, o'zi nimadir yumush bilan nariroqqa ketdi. Qaytib kelganida ne ko'z bilan ko'rsinki, qimmatbaho sumkasi ichidagi tilla taqinchoqlari, pasporti, pul va boshqa buyumlari bilan gumdon bo'lgan edi.

Afro'za kimdir adashib olgan bo'lsa, qaytarib berar, degan umidda hech kimga murojaat qilmadi, keyin poytaxtdagi tanishlarinikiga mehmonga ketdi. Ammo, oradan to'rt kun vaqt o'tsa-da, yo'qolgan narsalardan xabar bo'lmadi. Toqati toq bo'lgan ayol Toshkent shahri aeroportlarida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasiga ariza bilan murojaat qildi.

Jinoyatni fosh etish boshqarma TQB o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili, podpolkovnik Akmal Sultonovga topshirildi. Dastavval ishni aeroportdagi kuzatuv kameralarini sinchiklab tekshirishdan boshlagan lavhamiz qahramoni A.To'rayeva turib ketgan o'rindiqqa kelib, uning buyumlarini olgan kimsa Malayziyadan uchib kelgan andijonlik Kumush Sattorova ekanini aniqlashdan boshladi. Voqeaga yanada oydinlik kiritish maqsadida unga qilingan qo'ng'iroqlarning hech biridan naf bo'lmadi. Axiyri, izquvar vodiy tomon yo'l oldi. Ayol yashaydigan mahalla profilaktika inspektori bilan birga uning uyiga bordi. Ichki ishlar organi xodimlarini ko'rgan gumdonlanuvchi esa deraza osha qochmoqchi

bo'ldi. Buni vaqtida payqagan izquvar uni qo'lga olmoqchi bo'lib yoniga borganida K.Sattorova deraza oldida turgan belkurakni olib, hujumga o'tdi. Bu kabi holatlarning hadisini olgan Akmal darhol ayolni zararsizlantirishga muvaffaq bo'ldi...

Ko'p yillik xizmat faoliyati davomida kasbiga bo'lgan sadoqatini namoyon qila olgan podpolkovnik A.Sultonov o'z kasbining ustasi sifatida e'tirof etiladi. Bundan o'n uch yil muqaddam IIV Akademiyasining tezkor-qidiruv faoliyati yo'nalishini tamomlagan lavhamiz qahramoni ilk xizmat faoliyatini o'zi tug'ilib o'sgan Xorazm viloyati Shovot tumani IIB JQB tezkor vakili lavozimida boshladi. Ustozi, hozirda iste'fodagi podpolkovnik Muzaffar Masharipovdan soha sirlarini qunt bilan egallagan yosh xodim teran fikrlashi, izlanuvchanligi va tashabbuskorligi bilan qisqa vaqt ichida o'z qobiliyatini namoyon etib, jamoadoshlarining hurmatiga sazovor bo'ldi. Jinoyatlarni «issiq izida» fosh etib, rahbariyatning nazariga tushdi.



– Otamning oq fotijasini olib, uning ichki ishlar organi xodimi bo'lishdek orzusini amalga oshirganim menga muvaffaqiyat olib keldi, jamiyatda ham o'z o'rnimni topdim, – deydi podpolkovnik A. Sultonov. – Shuni aytisalar kerak, «ota duosi o'q yo'nar» deb...

Tirishqoqligi va qat'iyatligi bilan barchaga namuna bo'lib kelayotgan

podpolkovnik Akmal Sultonov kasbiy va jangovar mahoratni sinovdan o'tkazish maqsadida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ham faol qatnashib kelmoqda. Bundan tashqari, bolaligidan boks bilan shug'ullanib kelgan qahramonimiz hozir ham sportni aslo kanda qilgani yo'q.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



БИЗНИНГ СУХБАТ

Беҳзод Муҳаммадкаримов:

ТОМОШАБИН ДИДИ БИЛАН ЎЙНАШИБ БЎЛМАЙДИ

Ўзбек Миллий академик драма театри актёри, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист, бир қатор тарихий роллари билан мухлислар меҳрини қозонган ижодкор Беҳзод Муҳаммадкаримов бугунги суҳбатдошимиз. Унга ўзимизни қизиқтирган саволлар билан юзландик...

– Ҳар бир актёр ўзига ишониб топширилган ролни қойилмақом қилиб ижро этиши учун образга кира олиши зарур. Сизда бу жараён қандай кечадди ва асосан нималарга эътибор берасиз?

– Биринчи навбатда, хоҳ у саҳна асари бўлсин, хоҳ фильм сценарийси жараёнга кириб олиш учун, аввало, синчиклаб ўрганиб чиқаман. Ундан кейин қаҳрамонининг ўрнига ўзимни қўйиб кўраман. «Агар шу вазият бошимга тушганида мен нима қилган бўлардим?» деган саволга жавоб излай бошлайман. Натижада ўша жараён худди менда кечаётгандек ҳис пайдо бўлади. Бу эса деталларнинг ҳаётий чиқишига жуда катта ижобий таъсир кўрсатади.

Бир ҳаётий шиорим бор: ўз ролингга эга бўлиш — омад. Мен қаҳрамонининг дардини «айтганимда», мени тушунишларини истайман.


– Ижодкорни ижод томонлама нималар ёки қайси омиллар синдириб қўйиши мумкин?

– Ўз устида ишламаслик, вазифасига совуққонлик билан ёндашиш. Бошқа соҳаларда ҳам бўлади-ку, топшириқ берилса, «қўл учида» бажарадиганлар. Айнан актёр, ижодкорлар шу амални ўзларида синиб кўришни бошладим, энгиллик ахтардим, демак, бу синиб эмас, «чўкиб» бораётганига ишорадир. Бу борада мен учун энг кўрқинчли жиҳат «тўхтаб қолиш». Шунинг учун ҳам йиллар давомида тўпланган тажрибамга ишониб қолмасдан, ҳамон изланаман. Янада кўпроқ ўз устимда ишлашга интиламан.

– Тарихий шахсларимиз, миллий қаҳрамонларимиз ҳақида чет элларда

кино олиниши ва аждодларимизни хорижликлар ўзларига мослаб талқин қилишларига муносабатингиз...

– Буни оғриқ билан қабул қиламан. Негаки, шунча тарихий сиймолар, арбоблар, қомусий олимларга эгамиз.



одинлаб бораётганидан далолат беради.

– Бир қанча тарихий сиймоларни гавдалантиргансиз. Айтинг-чи, агар имкон берилганида, яна қайси йирик арбоб ҳаётини жонлантирган бўлардингиз?

– Имкон берилганида, буюк саркардамиз Амир Темуру ҳаётининг сўнгги даврини кўрсатиб берган бўлардим. Яъни, ёши улғайган, кексайган вақтларини. Сабаби, бир пайтлар «Буюк Амир Темуру» фильмида бобомизнинг навқирон ёшлик онларини тасвирлаганман.

Аслида, саволингизга жавоб беришим бироз қийинроқ. Чунки ҳар бир тарихий шахс родини ижро этиш жуда шарафлидир. Ким орзу қилмайди бундай шарафга эришишни?!

– Кинофильмларда, спектаклларда ижро этган ролларингизда қандай касб эгалари фаолиятини борича оммага очиб бериш қийинчилик туғдирган, яъни таъсирланиб бир неча кун давомида ўзингизга келолмай юрган ҳолатлар кузатилганми?

– Йўқ. Мен фаолиятимда бундай вазиятларга тушмаганман. Балки, бошқа ҳамкасбларимизда сиз айтгандек жараёнлар бўлиши мумкин. Актёр ҳам аскардек гап. Ролга киришиш жараёнида ҳар қандай тўсиқни енга олиши ва ўша жараёндан тезликда чиқа олиши зарур. Сабаби, унда навбатдаги бутунлай бошқа янги фильмлар, спектакллар қаҳрамонлари образига кира олиш масъулияти ҳам туради. Шунинг учун ишни якунлабоқ янгисига ўтаман.

– Савиянгизга мос келмаган саҳна асарлари, фильм ва сериалларда мажбурликдан иштирок этганмисиз?



Беҳзод Муҳаммадкаримов 1964 йил 23 мартда Тошкент шаҳрида туғилган. 2000 йилда Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист унвонига сазовор бўлган. Актёрни «Буюк Амир Темуру», «Ўткан кунлар», «Лайли ва Мажнун», «Шайтанат», «Оқ бино оқшомлари», «Ихтиёрсиз қотил», «Қўриқхона», «Сўнгги нафас», «Нокдаун», «Буюк Турун», «Чиптасиз», «Жимжитлик кодекси», «Сенсиз ҳаёт зерикарли», «Баҳодир Ялангтўш» каби кино ва телесериалларда кўришимиз мумкин. Бундан ташқари, театрда саҳналаштирилган «Алишер Навоий»да Навоий, «Меҳробдан чаён»да Анвар, «Бир кошона сирлари»да Рустам, «Мирзо Улугбек»да Абдулатиф, «Қирол Лир»да Эдмонд, «Темуру»да Бунёд каби бош қаҳрамонларни ижро этиб, томошабинлар олқишига сазовор бўлган.

– Учраб туради. Театр мисолида айтадиган бўлсам, менга ишониб топширилган роллар, қаҳрамонларнинг образлари ҳар доим ҳам каминага ёқавермаслиги мумкин. Лекин уни барибир ўйнашим шарт. Тирикчилигим шундан. Ёки жойимни бошқага бўшатиб беришим зарур. Аммо «ёқмади» деб, жараёнга энгил қарай олмайман. Ҳар қандай ҳолатда ҳам, томошабинни ҳурмат қилган ҳолда, бор маҳоратимни ишга солишга интиламан. Фильм-сериалларга келсак, сценарийни ўқийман. Маъқул бўлгач, муаллифга рози эканлигимни билдираман. Афсуски, баъзан сценарийдан ташқарига чиқиб кетилади ва тасвирга олиш ишлари бутунлай бошқача тус олади. Сиз эса келишувга эришиб, лафз қилгансиз. Шутариқа, ўзингиз истамасангиз-да, мажбурликдан ишни охиригача етказиб қўясиз. Бироқ жараёнлардан жуда четга чиқилаверса, «ҳаддан

ошилса», ҳеч қачон ўзимни беҳурмат қилишларига йўл қўймайман.

– Кўпчилик томошабинлар дидининг ўтмаслашиб бораётганига тақдим этилаётган маҳсулотларнинг ўта маишийлашаётганини сабаб қилиб кўрсатади. Соҳа вакили сифатида эътирозлар ўринли, деб ҳисоблайсизми?

– Ўринли. Маиший мавзулар ҳам олиб чиқилиши керак. Фақат меъёрга амал қилиш даркор. Айтишди-ку, «Меъёридан ошса, ҳатто шифобахш асал ҳам касал қилади» деб. Эътирозлар кўпайганми, демак, бу ҳавоий гаплар эмас. Ўзини ҳурмат қилган ижодкорлар бу масалада чуқурроқ ўйлаб кўриши шарт. Томошабиннинг диди билан ўйнашиб бўлмайди. Оқибати оғир бўлиши мумкин.

– Мазмунли суҳбатингиз учун ташаккур!

Аброр ПОЁНОВ
суҳбатлашди.

Служба пробации



В ГУВД города Ташкента для личного состава Управления пробации, а также отделов (групп) пробации УКД ОВД районов столицы проведен цикл занятий по служебной и психологической подготовке.

В ходе занятий рассмотрены вопросы дальнейшего повышения профессионального мастерства сотрудников, совершенствования их коммуникативных навыков в целях эффективного установления конструктивного диалога

с поднадзорным контингентом. Акцентировано внимание на недопустимость проявления любых форм нарушения дисциплины и законности.

Соб. корр.

Становление



Выпускница 1-го Ташкентского академического лицея МВД Республики Узбекистан Юлиана Свободина, успешно окончив учебное заведение, поступила на факультет «Гражданское право» Московского международного университета.

Республика Каракалпакстан

БЛАГОДАРНА НАСТАВНИКУ

Мечта движет людьми, дает мощный импульс к совершенствованию. Говорят, заставь человека чего-либо сильно захотеть, остального он добьется сам. И все же нужны те, кто морально поддерживает в достижении намеченных рубежей. К таковым, прежде всего, относятся наставники.

Нилуфар ЮЛДАШОВА, старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД Элликалинского района, старший лейтенант:

– После окончания Нукусского государственного педагогического института с 2017 г. работала в школе.

В 2022 году прошла отбор и была принята на службу в органы внутренних дел. Деятельность начала в качестве инспектора-психолога по вопросам несовершеннолетних ОПП ОВД Элликалинского района. В качестве наставника за мной закрепили опытного сотрудника – подполковника Отахона Юсупова.

Он учил тому, как найти общий язык с состоящими на учете под-



ростками, детьми из неблагополучных семей.

В 2023 году была назначена на должность старшего инспектора по вопросам женщин. Функциональные обязанности связаны с разрешением сложных межличностных отношений, отстаиванием интересов женщин, защитой их от притеснений и насилия. И здесь действенную помощь оказывал подполковник О. Юсупов.

Однажды пришлось разбираться с семейной ссорой. Причины неурядиц упирались в материальные проблемы – трое детей, супруг не работает, бытовые условия оставляют желать лучшего. На этой почве дошло до рукоприкладства со стороны мужа.

Выслушав стороны, подполковник О. Юсупов на житейских примерах объяснил, что только общими усилиями мужа и жены можно преодолеть черную полосу в совместной жизни.

Женщине мы оформили охранный ордер. Супругу оказали содействие в трудоустройстве в фермерское хозяйство. Спустя некоторое время все у них нормализовалось.

В районе имеются 30 сходов граждан, с населением проводим профилактическую работу. За шесть месяцев текущего года охранные ордера оформлены 133 женщинам.



KIBERMADANIYATNI YUKSALTIRISH OYLIKI

MAQSAD – «RAQAMLI IMMUNITET»NI SHAKLLANTIRISH

Kybersport – ikki odam yoki jamoa o'rtasidagi intellektual bahs. Musobaqada barcha harakatlar boshqa sport turlaridagi kabi g'alabaga erishishga qaratilgan bo'lib, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga, tez fikrlashga, mantiqiy bog'liqlikni ko'rishga, sergak bo'lishga, diqqatni jamlashga o'rgatadi.

Samarqand viloyati ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan yosh xodimlar o'rtasida tashkil etilgan kibersport musobaqasida barcha shahar-tuman IIB jamoalari ishtirok etdi.

– Bugun musobaqada qatnashish asnosida bir-birimiz bilan fikrlashib, bilimlarimizni yanada boyitdik, – deydi Kattaqo'rg'on tumani IIB Tezkor-qidiruv xizmati Terrorizmga qarshi kurashish bo'linmasi tezkor vakili, leytenant Boqijon Abdullayev. – Internet firibgarlari chuv tushirishning yangidan-yangi yo'llari va

usullarini o'ylab topayotgan hozirgi vaqtda bu kabi tadbirlar «raqamli immunitet»ni shakllantirishda ayni muddao bo'ladi.

Xodimlar o'rtasida bunday tadbirlarning o'tkazilishi ularni axborot texnologiyalari, IT industriya uchun salohiyatli kadrlar sifatida tayyorlash, bevosita xizmat jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanishlarida muhim omildir.

Musobaqa yakunida faxrii birinchi o'ringa viloyat IIB JXX JTSB PPXB jamoasi, ikkinchi o'ringa Samarqand tumani IIB jamoasi, uchinchi o'ringa Tayloq tumani IIB jamoasi loyiq topildi. G'oliblarga diplom, medal hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



G'AMXO'RLIK

FAXRIYLARNI YO'QLAB

Olmazor tumani IIOFMB rahbariyati, boshqarma boshlig'ining maslahatchisi, iste'fodagi polkovnik J. Suliyeu va Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi mayor A. Satimov shifoxonada davolanayotgan II guruh nogironi, iste'fodagi serjant Raisa Bernova hamda I guruh nogironi, iste'fodagi mayor Rustam Mirzayevning holidan xabar olishdi. Faxriylar bunday e'tibor va g'amxo'rlik uchun o'z minnatdorligini bildirdi.

– Agar kimdir sendan xabar olsa, holingni so'rasa, ich-ichingdan xursand bo'lasan, kishi, – deydi iste'fodagi mayor Rustam Mirzayev. – Ayniqsa, xasta bo'lganingda yo'qlab kelishsa, e'tibordan chetda qolmaganingni his qilasan. Buning uchun tuman IIOFMB rahbariyati, maslahatchi va Faxriylar kengashidan minnatdorman.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



TASHVISHLI QO'NG'IROQ IZIDAN

Tungi payt o'ziga birlashtirilgan «Qazaqdaryo» ovul fuqarolar yig'ini hududini aylanishga chiqqan profilaktika katta inspektori, mayor Nag'met Maxambetovga Mo'ynoq tumani IIB Navbatchilik qismidan aloqaga chiqishdi.



Mayor Nag'met Maxambetov 1981-yili «Qazaqdaryo» ovul fuqarolar yig'inida tavallud topgan. Tizimdagi ilk xizmat faoliyatini 2011-yili Qo'ng'iroq tumani IIB Yong'in xavfsizligi bo'linmasidan boshlagan. 2014-yildan buyon Mo'ynoq tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori lavozimida ishlab kelmoqda. Unga birlashtirilgan hudud maydoni ancha katta bo'lib, 4200 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Uning ovul fuqarolar yig'ini faollari bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlari tufayli bir necha yillardan buyon «yashil hudud» sifatida qayd etib kelinmoqda.

o'zlari yurgan yo'llarga qaytib chiqqanlaridagina adashganliklarini sezib, xavotirga tusha boshlashdi. Ustiga-ustak, mashina qumga tiqilib, botib qoldi. Uning balloni tagini qazib ham, itarib ham chiqarishning uddasidan chiqa olishmadi. Yanayam yomoni, bu yerda uyali telefon yaxshi ishlamasligi sababli kimni-

ham ozgina suv qolgan. Agar o'zlari adashib ketsa, ularning holi nima kechadi? Kim ularni izlab, bu yerlarga topib keladi?..

Ana shu xayollar bilan tushkun holda kelayotgan Qonisboy Rasulning «qara, antenna chiqdi!» deb baqirganini eshitganida yig'lab yuborishiga sal qoldi. Shu joyning o'zida turib tanishlariga qo'ng'iroq qilib yordam so'rashdi. Ular, o'z navbatida, Mo'ynoq tumani IIBga qo'ng'iroq qilishdi.

Bu paytda mashinada qolgan Sapparboyning ham boshi qotgandi. Ketganlar yetib bora olarmikin, agar yo'lda yovvoyi hayvonlarga duch kelishsa-chi? U yomon xayollardan chalg'ish maqsadida mashinadan tushib, ballon tagini qazishga tushdi. Bunga ko'p kuch ketar, chanqoqni battar kuchaytirar edi.

Kun botganidan so'ng atrofni turli yovvoyi hayvonlarning uvullashi tutib ketdi. Ularni hurkitish niyatida olovni kattaroq qilib yoqish uchun o'tin g'amlashga tushishdi. Ikkovlon ancha o'tin to'plagach, mashina ichiga kirib o'tirdi. Shu orada uxlab qolib, tun yarmidan og'ganida avtomashina chirog'ini ko'rib, yugurib tashqariga chiqishdi.

– Xizmat hududimning bir tomoni Qozog'iston Respublikasi, shuningdek, Qorao'zak, Bo'zatov, Kegeyli tumanlari bilan chegaradosh. Bu yerlarda bir nechta ko'llar va katta cho'l maydoni bo'lgani bois ovchilik maqsadida keladigan kishilar ko'p topiladi. Yuqoridagi voqea bundan bir necha yil ilgari ro'y bergan. O'shanda, yaxshiyamki, o'z vaqtida bizga xabar kelib tushgan. Shu boisdan fuqarolarni o'z vaqtida topib, eson-omon uylariga qaytarishga erishdik. Albatta, biz har qanday holatda yordamga tayyormiz va buni o'z burchimiz deb bilamiz, – deydi mayor N.Maxambetov.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston
Respublikasi.

– Xizmat hududingizdan tashvishli xabar kelib tushdi. Fuqarolarning mashinasi buzilib, adashib qolishibdi. Tezda bog'lanib, topishga harakat qiling.

– Sizni tushundim.

Navbatchi fuqarolarning uyali telefon raqamini berganidan so'ng mayor ular bilan bog'lanib, turgan joyini chamalaganidan so'ng, boshqa yerga ketib qolmaslikni tayinlab «Niva» avtomashinasida shoshilinch yo'lga chiqdi.

Xo'sh, adashgan yo'lovchilar kimlar edi va ular qanday qilib bu vaziyatga tushib qoldi?

...Yakshanba kuni bo'lgani bois bemalol uxlab yotgan Qonisboyning uyali telefoni jiringlashi uni uyg'onishga majbur qildi. Istar-istamas javob tugmasini bosdi.

– Qonisboy, qalaysan, uydamsan jo'ra? Men Sapparboyman.

– Ha tanidim, yaxshimisiz, tinchlikmi ertalabdan?

– Ertalab qoldimi, soat 9 bo'ldi-ku. «Qazaqdaryo» tomonida ko'l suvi kama-

yibdi. O'vga chiqmaymizmi, shu bahona dam olib ham kelardik. Kechqurun qaytishga ulguramiz.

Baliq oviga qiziqishi baland bo'lgani uchun bu xabar Qonisboyning uyqusini ochib yubordi. Xullas, kelishuvga ko'ra yigirma daqiqalardan so'ng Sapparboy Qonisboyning uyi oldida mashinasi bilan paydo bo'ldi. Uning yonida Rasul ismli o'rtog'i ham bor edi. Bu orada tuzuk nonushta qilishga ham ulgurmagan Qonisboy 8-sinfda o'qiydigan o'g'li Quyoshbekni ham birga olib chiqdi.

Biroz o'tib katta yo'lga chiqqan «Gentra» manzil sari shamolday yelib borardi. Ular borishni niyat qilgan Qaramush ko'li «Qazaqdaryo» markazidan ancha uzoqda joylashgan. U yoqdan bu yoqqa chugalashgan qumli yo'llar atrofida na biror ovul, na yakka turgan uy ko'rinadi. Atrofda juzg'un, saksovil kabi o'simliklarning hidi dimoqqa urib, haqiqiy yovvoyi tabiatni his qilish mumkin. Shu ketishda ikki-uch

soat yurib, tush payti ko'l bo'yiga yetib kelishdi.

Haqiqatdan ham, Sapparboy ta'kidlaganidek, ko'l suvi tortilgani bois baliq tutish ancha oson kechdi. To'r bilan baliq ushlagga qiziqib ketganlaridan hatto tushlik qilish ham yoddan ko'tarildi. Shundan so'ng yengilgina tamaddi qilib, yo'lga hozirlanishdi. Bu orada Qonisboyning ichimlik suvidan bo'shagan ikkita yelim idishga ko'ldan suv to'ldirayotganini ko'rib Sapparboy «nima qilasan ko'l suvini, ichishga yaroqsiz-ku, tashlab yubor. Yo'ldan olamiz, ketdik» deya shoshiltirdi. Ammo ular oldinda hali qanday sinovlar kutib turganini, keyinchalik aynan shu suv jonlariga oro kirishidan bexabar edilar...

Baliq ovi baroridan kelganidan ko'ngli shod bo'lgan yigitlar yo'lga tushib, biroz masofani bosib o'tishdi. Ammo uch soatlar yurishsa ham ovullar ko'rinmadi. U yo'ldan bu yo'lga o'tib, ayrim joylarda



ZARRABIN OSTIDA

DERAZA SHISHASIDAGI IZ

To'ydan allamahalda qaytgan Alimurod Ramazonov (voqea ishtirokchilarining ism-sharifi o'zgartirildi) derazasi ochiqligini ko'rib, kapalagi uchib ketdi.

Er-xotin ko'p o'tmay o'g'rilik jinoyati yuz berganini anglashdi. Noma'lum shaxslar ularning uyidan 1500 AQSH dollari miqdoridagi pulni o'g'irlab ketishgandi. Alimurod vaqtini o'tkazmasdan, Qorako'l tumani IIBga qo'ng'iroq qildi. Hodisa joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi xodimlari ishga kirishdi. Guruh tarkibida bo'lgan tuman IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Zohidjon Haqberdiyev xonadon derazasida va ichkarida qoldirilgan qo'l-barmoq izlaridan namunalar oldi. Tekshirishlar natijasida 10 ta barmoq izidan beshtasi xonadon egalari, qolgan beshtasi begona shaxsga taalluqli bo'lib chiqdi. Mayor Z. Haqberdiyev zudlik bilan barmoq izlarini viloyat IIB EKMga yubordi. Tajribali ekspertlar bu ma'lumotni «Shaxsni biometrik identifikatsiya qilish» kompyuter bazasida mavjud bo'lgan qo'l-barmoq izlari bilan so-



Suratda: Qorako'l tumani IIB EKG katta eksperti, mayor Z. Haqberdiyev.

lishtirib ko'rishdi. Natijada hodisa mahallasidagi xonadon derazasi joyida, ya'ni tumanning «Oq oltin» shishasidan olingan qo'l-barmoq

izlari shu mahallalik, 2006-yilda tug'ilgan A. Saidga tegishli bo'lib chiqdi. Shu tariqa, jinoyat «issiq izida» ochildi.

– Joriy yilning o'tgan besh oyi davomida 67 marotaba hodisa joyi ko'zdan kechirilib, 14 ta qo'l-barmoq izlari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirildi, – deydi mayor Z. Haqberdiyev. – Sodir etilgan jinoyatlarga aloqador bo'lgan qo'l-barmoq izlari kompyuter bazasida mavjud bo'lgan izlar bilan solishtirilganda 3 ta jinoyat fosh etildi. Shuningdek, 56 marta tezkor-tergov harakatlari, 222 marta tezkor-qidiruv tadbirlarida ishtirok etdim. Natijada sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning qisqa fursatlarda fosh etilishiga erishildi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

MUTAXASSIS FIKRI

JINOYATNING
BIR ILDIZI

Hech jinoyatning sabab va omillari bilan qiziqib ko'rganmisiz? Ichki ishlar organlari xodimi sifatida ayta olamanki, qonunbuzarlikning bir ildizi yomon kechgan bolalikqa taqaladi. Ya'ni, kimningdir otasi yoki onasi ichkilikboz yoxud giyohvand bo'lgan, yana birov uyda ololmagan mehri ko'chadan qidirib, yomonlar ta'siriga tushib qolgan. Boshqasini haddan ziyod erkalatib yuborishgan.

So'zlarimga Zafarobod tumanining «Bo'ston» mahallasida yashovchi, 17 yoshli Xolida (ismlar o'zgartirildi)ning taqdirini misol sifatida keltirish mumkin. Qizning ota-onasi ajrashgach, ayol Xolidani singlisiga qoldirib, xorijga ishlashga ketdi. Qiz xolasinikida yomon yashamaydi, biroq unga e'tibor yetishmas edi. Tergab, to'g'ri yo'lga soladigan ota-onasi yonida yo'qligi bois Xolida «Samarqand» mahallasida yashovchi, o'zidan bir yosh katta Umid bilan tanishib, uchrasha boshlaydi.

Qizning qadam tashlashi bejolgini sezgan qarindoshi nazoratni kuchaytiradi. Bunga toqat qilolmagan Xolida uydan qochib ketadi. Endi unga turarjoyini ijaraga olish hamda yemak-ichmak uchun pul kerak edi. Shu sabab hech kim yo'q payti xolasining uyidagi seyfdan onasiga tegishli bo'lgan 80 million so'mlik tilla taqinchoqlarni o'g'irladi. Seyf kaliti qayerdaligini bilgani tufayli ushbu jinoyatni amalga oshirish oson kechdi.

Keyin Umid bilan birga Jizzax shahriga borib, taqinchoqlarning bir qismini 9 million 200 ming so'mga sotib, ko'p qavatli uydan ijaraga xonadon olib yashay boshladilar. Barcha taqinchoqlar sotilib, pul tugagach, turarjoy egasi ularni chiqarib yubordi. Natijada, yigit va qiz o'z yashash joylariga qaytishga majbur bo'lishdi. Ko'p o'tmay Xolida xolasinikidan yana 40 million so'm o'g'irladi. Ular yana Jizzax shahridan ijaraga uy topdilar.

Voqea xolaning qizni eplay olmasligini anglashi va ichki ishlar organlariga murojaat qilishi bilan rivojlandi. Qisqasi, tarbiya borasidagi oqsoqlik uchta oilaga qimmatga tushdi. Xullas kelajakni o'ylab, farzand tarbiyasiga befarq bo'lmaylik.

Jahongir ESHMURODOV,
podpolkovnik.

Jizzax viloyati.

QILMISH – QIDIRMISH

«TASHLAMASANG,
ISHLAMAYSAN»

Mingbuloq tumanida yashovchi 30 yoshli S.M. tug'uruq ta'tilidan so'ng o'zining avvalgi ish joyiga, hamshiralik lavozimiga qaytmoqchi bo'ladi. Biroq endi ishga qaytish 500 AQSH dollari bo'lishini aytishadi. S.M. noiloj, mablag' qidirishni boshlaydi. Ammo farzandi hali uch yoshga to'lib-to'lmagan ayolga buncha pulni topish, albatta, amri mahol edi.

Axyri, chora topolmagach, shart-sharoitini tushuntirmoqchi bo'lib, yana ishxonasiga boradi. Afsuski, «tashlamasang, ishlamaysan» ma'nosidagi gapni eshitib, tarvuzi qo'ltig'idan tushadi. Shundan so'ng u tuman IIBga ariza bilan murojaat qiladi.

Mingbuloq tumani IIB tezkor va-killari tomonidan o'tkazilgan tadbirda

pora talab qilgan shifokor 500 AQSH dollarini olgan vaqtda ushlanadi. Qizig'i, pora so'ragan shaxs ishga qabul qilish vakolati bo'lmagan firibgar bo'lib chiqadi.

Ulug'bek ABDUVOHIDOV,
katta leytenant.

Namangan viloyati.



ULTRABINAFSHA NURLARIDAN QANDAY HIMOYALANISH MUMKIN?

So'nggi kunlarda respublikamiz bo'ylab havo harorati sezilarli darajada ko'tarilgani kuzatilyapti. Anomal issiqdan tashqari ultrabinafsha nurlari inson salomatligi uchun qay darajada xavfli?

IIV Markaziy poliklinikasi davolash ishlari bo'yicha boshliq o'rinbosari, podpolkovnik Sayyoraxon QILICHEVAning tavsiyalari shu xususda.

– Quyoshning insoniyatga bo'lgan asosiy xavfi – bu ultrabinafsha nurlanish bo'lib, nurlar tanani kuydiradi, terini erta qaritadi, melanoma va teri saratoni kasalliklariga olib keladi va hatto immunitetni susaytiradi. Shu bois bu holatga bee'tibor bo'lmaslik lozim. Bunda oftobdan saqlanish

uchun turli tabiiy va sintetik krem va kosmetik vositalardan foydalanish kerak. Ular A va B ultrabinafsha nurlaridan himoya qilishiga qarab farqlanadi. Bu vositalar fotoprotektorlar, deb ataladi.

Fotoprotektorlar ta'sir mexanizmi qarang kimyoviy (filtrlar) va

mineral (ekran) turlariga bo'linadi. Nurlardan himoyalani darajasi – oftobdan saqlanish omili, ya'ni SPF bilan o'lchanadi. Bizning iqlim sharoitimizda SPF 50 dan past bo'lmagan oftobdan saqlanuvchi vositalarni ishlatish maqsadga muvofiq. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday vositalarni xarid qilishda, albatta, ana shu jihatlarga e'tibor bering.

Haddan ziyod quyoshda yurishi saratoniga uchrash ehtimolini oshiradi. Bunday paytda ultrabinafsha nurlaridan himoyalani kerak bo'ladi. Biroq bu nurlarning zarari teriga nisbatan ko'zlarimizga tezroq ta'sir o'tkazishi mumkin.

Ultrabinafsha nurlarining davomiy ta'siri kataraktning kelib chiqishiga, u esa, o'z navbatida, ko'z nurlarining butunlay yo'qolishiga sabab bo'ladi. Teri saratoni yuzaga kelishi uchun ancha vaqt talab etilsa, ko'zlarga zarar

yetkazishda ultrabinafsha nurlarining oz miqdori ham yetarli hisoblanadi. Shuning uchun ko'zlarimizni quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak bilan asrab-avaylash lozim.

Tavsiyalarga rioya qiling:

- yuz va tananing boshqa ochiq sohalariga quyoshdan himoya qiluvchi SPF krem surtishni unutmang;
- suzish havzasida cho'milgandan so'ng tanadagi SPF kremni yangilash kerak bo'ladi;
- jazirama issiqda soat 10:00 dan 17:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida besabab tashqariga chiqmaslikka harakat qiling;
- to'g'ri va sog'lom ovqatlanish o'zingizni yaxshi his etish va go'zal bo'lishga yordam beradi. Yozda ko'proq meva va sabzavotlarni iste'mol qiling, taomnomaga donli va yog'siz, oqsilga boy mahsulotlarni kiriting.



Karkade choyi

Bu Sudan atirguli, shuningdek, gibiskus nomi bilan mashhur gulning quritilgan ko'rinishi bo'lib, tropik xususiyatiga qaramay, undan butun dunyoda talabgir bo'lgan xushbo'y va mazali ichimlik tayyorlanadi.

Karkade choyi juda foydali bo'lib, ham davolashda, ham parhezda qo'llaniladi. Ushbu ichimlik aminokislota va antioksidantlar, vitaminlar (A, V guruhi, S, R), mikroelementlar (natriy, kalsiy, magniy, fosfor, temir, kaliy), uglevodlar (fruktoza va glyukoza) hamda organik kislotalarga boy.

Karkade salomatlik holatini yaxshilashga xizmat qiluvchi bir qator qimmatli xususiyatlarga ega. U arterial bosimni me'yoralashtiradi va qon tomirlari elastikligini yaxshilab, ularning devorlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, bu ichimlik organizmdan «yomon» xolesterinning chiqarilishini rag'batlantirib, qonda uning darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Karkade choyi oshqozon-ichak trakti faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U virus va mikroblarga qarshi kurashish xususiyatiga ega bo'lib, jigar faoliyatini yaxshilaydi va uning tozalanishiga xizmat qiladi. Tarkibida antioksidantlar mavjudligi bois karkade



saraton hujayralari rivojlantirishining oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, immunitetni mustahkamlab, organizmga yoshartiruvchi va tetiklashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu ichimlik peshob va safro haydovchi xusu-

siyatga ega bo'lib, o't pufagi va hatto organizmning to'plangan toshlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Qolaversa, u kollagen ishlab chiqarilishini yaxshilab, qarish jarayonini sekinlashtiradi.

Shuningdek, karkade choyi sokinlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, nevroitik buzilishlar va uyqusizlikka qarshi kurashishda yaxshi yordamchidir.

Karkade choyi metabolizmni yaxshilab, organizmni tozalaydi. Uning tarkibidagi mikroelementlar diqqatni jamlash va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ichimlikning yana bir o'ziga xos xususiyati – issiq holda iste'mol qilganda, arterial qon bosimini ko'taradi va tetiklashtiradi, sovuq holda esa qon bosimini tushiradi va tinchlantiradi.

Bu choyni ovqatlanishdan 2 soat o'tgach, ichish tavsiya

etiladi. Agar uni taomdan oldin iste'mol qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, karkade oshqozonda kislota miqdorini oshirishini unutmang, shu bois oshqozon-ichak trakti bilan bog'liq muammolari bo'lgan insonlar bunga o'ta e'tiborli bo'lishi lozim.

Har qanday mahsulot kabi, karkade choyi tavsiya etilmaydigan holatlar ham mavjud. Homiladorlik va laktatsiya davrida, qon bosimi tushib ketganda, oshqozon bilan bog'liq kasalliklarda, allergik ta'sirlar kuzatilganda ushbu ichimlik iste'molini to'xtatgan ma'qul.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



ДЕТСКИЙ УГОЛОК

ОХРАНЯЕТ ПОРЯДОК

Воспитатель загадывает загадку:

– Постарайтесь угадать,
Кто всегда вооружен,
Только не опасен?
Даже кошек и ворон защищать
согласен.

По мишеням каждый год
Он стреляет в тире.
И порядок наведет
Он в любой квартире.

Дети:

– Сотрудник органов внутренних дел!

Воспитатель:

– Вы готовы узнать о профессии
сотрудников органов внутренних дел?

Дети:

– Да!

Воспитатель:

– Сотрудник органов внутренних дел –
это человек, который обладает отличной
физической подготовкой, смелостью,
решительностью, честью, отвагой.



В органах внутренних дел служат не только мужчины, но и женщины. Все они следят за порядком в городах, в сёлах, на дорогах, там, где собирается много людей.

Подготовила Светлана БУРЦЕВА,
воспитатель.

РЕБУСЫ



■ Сочинение

МУЖЕСТВЕННАЯ ПРОФЕССИЯ

Есть много хороших и нужных профессий. Но особенно мне нравится профессия сотрудника органов внутренних дел.

Это очень серьезная профессия. Здесь нужны сила, выносливость и знания. Каждый день, выходя на службу, независимо от погоды и времени года, сотрудники органов внутренних дел защищают граждан от преступников.


Я думаю, что в органах внутренних дел служат умные и отважные люди,

которые не боятся опасностей и трудностей. Сложно даже представить себе, что стало бы, если бы никто не стоял на страже безопасности граждан.

Когда вырасту, я тоже стану стражем правопорядка. Нужно с ранних лет готовиться к этому: хорошо учиться, заниматься спортом. И я, конечно, буду прикладывать все силы для исполнения своей мечты.

Темур МАЛИКОВ,
10 лет.

РАСКРАСКА



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(8-iyuldan – 14-iyulgacha)



Qo'y. Kelayotgan hafta davomida ezgu maqsadlarga erishish yo'lida tashabbuskor va faol bo'lishingizga to'g'ri keladi. Buning uchun sizda kuch ham, imkoniyat ham yetarli, xohish bo'lsa bas. Katta ishlarni ko'pchilik bilan bamaslahat amalga oshirgan ma'qul.



Buzoq. Tashabbuskorlik va ishdagi faollik ortidan barcha moliyaviy masalalarni omadli hal qilishingiz mumkin. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun hafta boshida bajarilgan ishlarni yana bir bor ko'zdan kechiring. Dam olish kunlarini imkon qadar oila davrasida o'tkazing.



Egizaklar. Bu hafta kasb-hunar va moliyaviy jabhada sizga omad kulib boqadi. Lekin har bir ishda boshqaruvni o'z qo'lingizga olib, kuchli ishonch va qat'iyat bilan harakat qiling. Bu davrda his-hayajonga berilmay, imkon boricha bosiqlik bilan ish yuritish lozim.



Qisqichbaqa. Ish joyingizda kutilmagan va asosiy o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ham ko'tarinki bo'lib, qo'l urgan ishlaringiz baroridan keladi. Lekin salomatlikka jiddiy e'tibor qaratishni ham unutmang. Jismonan og'ir vazifalardan chetlashib, ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan uzoqlashing.



Arslon. O'z qarashlaringizga bo'lgan ishonchsizlik va oiladagi kelishmovchiliklar tufayli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Yaxshisi, hayotning asosiy quvonchini his etishga halaqit qiluvchi ba'zi qarash va o'y-fikrlardan voz kechganingiz ma'qul. Hafta davomida salbiy oqibatlar kuzatilmaligi uchun sog'liqni mustahkamlashga e'tibor qarating.



Parizod. Bu hafta sizga omad kulib boqadi. Anchadan beri o'z yechimini topa olmayotgan muhim masala aynan shu kunlarda hal bo'lishi mumkin. Rejalashtirilgan barcha yumushlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Moliyaviy jihatdan ham muvaffaqiyat siz tomonda bo'ladi.



Tarozi. Dushanba va seshanba kunlari hushyor bo'ling. Chunki bu vaqtda kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga harakat qiling. Yon-atrofdagilar bilan xushmuomala bo'lib, ular bilan aslo bahslashmang.



Chayon. Bu haftada vaqt va imkoniyatlar faqat sizga itoat etadi. Bundan unumli foydalangan holda ko'pgina muhim ishlarni bajarib olishga ulgurung. Bu davrda o'zingizga bo'lgan ishonch, qat'iyat sizni to'lqinlantirib turadi. Ayniqsa, moliyaviy muammolarni ijobiy hal etish masalasini unutib qo'ymang.



O'qotar. Siz umid bog'lagan hayotdagi o'zgarishlarni ortga surib turgan ma'qul, chunki bu davr o'zgarishlar uchun unchalik mos emas. Ish joyingizda hamkasblar bilan tushunmovchiliklar kuzatilishi mumkin. Nizo va kelishmovchilikni uzoqqa cho'zmaslikka harakat qiling, aks holda keyinchalik o'zaro munosabatlarni tiklash qiyin kechadi.



Tog' echkisi. Bu hafta va'da berdingizmi, albatta ustidan chiqing. Ko'zingizga juda mayda ko'ringan ishlarni ham bajonidil, o'zgacha havas bilan ado eting. Moliyaviy masalada har bir harakatingizni yaxshilab tahlil qiling. Shundagina keyinchalik qiynalib qolmaysiz.



Qovg'a. Hafta boshida ish joyingizda tekshiruv tashkil etilishi mumkin. Bundan aslo xavotirga tushib, qayg'urmang. Aksincha, barcha sa'y-harakatlaringiz munosib baholanadi. Haftaning ikkinchi yarmida tarang asablarni bo'shashtiring, ijodiy rejalarni amalga oshirish haqida o'ylang.



Baliq. Ilk davr ish faoliyatida ba'zi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sizdan o'z kuchingizga ishonib, hech ikkilanmasdan harakat qilish talab etiladi. Yoshi va lavozim jihatdan yuqori turuvchi tanishlar bilan munosabat qilishda imkon qadar xushmuomalalikni o'rniga qo'ying. Janjal va tortishuvlardan uzoq turing.

O'ZBEKCHASI MASHHUR BO'LDI



Ko'plab xonandalar tomonidan go'zal qizlar ismiga bag'ishlab bir qancha qo'shiqlar aytilgan. Shulardan biri taniqli xonanda va musiqachi O'ktam Hakimovning «Ismigul» qo'shig'idir.

ISMIGUL

Ming ismlar ichra Takrorlayman isming, Go'yoki hammasi Tushga o'xshab ketar.

Bu tushni o'ngimda Ko'rganday bo'ldim. Yurgan izlaringni Men topa olmadim, Ismigul.

Ishon, sensiz bir on ham Yashay olmayman, Beg'uborliging oldida Bosh egaman.

Saratonga soya, Tunga oy kerakdek, Sen menga keraksan, Ismigul, Ismigul, Ismigul.

Bulbul ham men kabi Tonggacha kuylaydi, Netay endi, jonim, Men seni yo'qotdim, Ismigul.

Nechun ikkimizni Ayt, taqdir tanladi? Umrbod men quling Bo'laman, malikam.

Ishon, sensiz bir on ham Yashay olmayman, Beg'uborliging oldida Bosh egaman.

Saratonga soya, Tunga oy kerakdek, Sen menga keraksan, Ismigul, Ismigul, Ismigul.

– Qo'shiqni aslida bir tojik filmi uchun mashhur kompozitor, ustozim Gennadiy Aleksandrov rus tilida yozgan edi, – deb eslaydi u.

Xonanda ijod bilan shug'ullanib, o'z ustida ishlab yurgan kezlari uni «Ofarin» ko'rik-tanloviga qatnashishga taklif etishadi. Tanlovda esa o'zbek tilidan tashqari, yana boshqa tilda ham qo'shiq kuylash kerak edi.

O'ktam Hakimovning didiga, tabiatiga boshqa tildagi biror qo'shiq tushib, ko'ngli jiz etmaydi. O'ylab-o'ylab, o'zining «Ismigul» qo'shig'ini o'zbek tiliga o'girib, qaytadan aytilish fikri keladi.

Qisqa vaqt ichida «Ismigul» o'zbek tilida yangi qo'shiq sifatida rus tilidagidan-da jozibador, dilga yaqin tarona bo'lib qayta yaratiladi.

– Bilasizmi, – deydi xonanda, – ijodiy safarlarda bo'lganimda repertuarimdagi boshqa qo'shiqlarni kuylasam, «Ismigul»ni so'rashadi, aynan o'zbek tilidagi variantini.

Darhaqiqat, 90-yillarning xit qo'shig'i sifatida alohida e'tirof etiladigan mazkur qo'shiqni bugungi kunda ham xalqimiz sevib tinglab keladi.

Adolat **FAYZIYEVA** tayyorladi.

				Покиза	Гуллар «шоҳи»	Балиқ тури				
Ақл...	Қон берувчи киши	Мояна, маош				Мутафаккир, донишманд	«Экспорт» акси	Муслиқий асар жанри		
				Бирлик санок сон	Мотор қисми					
Таҳлила (русча)	Чаён	Нуфуз				Бино	«Голливуд» кинематографоти	Миллат		
				Алоэ (ўзбек.)	Савдо маркази	Бозор қатори				
Инсон «мотор»и	Йирик қон томири	Якка кураш тури				Қўқонгул (русча)				
				Зебра ранги		Наврўз таоми	Тоҳир... (ёзувчи)	Шарқий Сибирдаги дарё	Чайла, чодир	
	Калта-кесак тури	Суртма дори			Ваъда, қасам					
				Ижозат, рухсат		Цирк майдони				
	Иш қуроли, ускуна	Ички аъзо			Жувон, хотин		Забон, лисон	Гул тури		
				Шеър ижодкори	Ҳол...	Жамият бўлағи	Одиссей ороли			
... Ниязметова (хонан.)	Асал-хўр ҳайвон	Абу Али... Сино (аллома)	Охир, тамом					Зеб бериш	Тошкентча дада	
				Йўғ-е	"... ва Зара" (хинд б/ф)		Сим «арқон»			
Нозанин, барно	Бўғим, қуймуч нерв касаллиғи		Ёғоч устун					... Аҳ-медова (хонан.)		
				... Бегас (АҚШ)			«... шпа» (дори)		Инкор этиш	

Тузувчи: Фаҳриддин РАҲИМОВ

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №2276.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50347 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.